

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O'zbek filologiyasi fakulteti

dekani _____ dots. I.Xudoynazarov

“ ___ ” _____ 2012-yil

“5220100 - Filologiya” ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun
IV kurs 44-guruh talabasi
DONONOVA GULZEBONING

HOZIRGI O'ZBEK LIRIKASIDA DAVR VA LIRIK QAHRAMON
TALQINI

(1990-2000yillar she'riyati misolida)

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

kat.o'q. Karomova.SH.

“Himoyaga tavsiya etildi”

O'zbek adabiyoti kafedrası

mudiri _____ dots. G.Imomova

“ ___ ” _____ 2012-yil

Qarshi – 2012

**Mavzu: HOZIRGI O‘ZBEK LIRIKASIDA DAVR VA LIRIK QAHRAMON
TALQINI
(1990-2000yillar she’riyati misolida)**

Reja:

KIRISH -----	3-6
I BOB. Ijtimoiy muammolarning badiiy talqini va lirik qahramon ----	7-29
1.1 90-yillar she’riyatida milliy o‘zlikni anglash va istiqlol g‘oyalarining badiiy talqini ----- -----	7-20
1. 2 She’riyatda davr muammolar va tarixiy shaxs timsoli -----	21--29
II. BOB. 90-2000 yillar she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari --	30-60
2.1. Milliylik bilan sug‘orilgan she’rlarning ahamiyati -----	30--41
2.2. Poetik g‘oya va lirik qahramon talqini -----	42--60
XULOSA -----	61-62
ADABIYOTLAR RO‘YXATI -----	63-64

KIRISH:

90-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan yangi to‘lqin adabiyot olamiga bir qator sifat o‘zgarishlarni olib kirdi. Siyosat olamidagi portlashlar adabiyot osmonida o‘z aks sadolarini berdi. SHO‘rolar siyosati tomonidan adabiyot uchun tayyorlangan qoliplarga ham darz yetdi, so‘z san’ati o‘zining azaliy va navqiron o‘zanlariga qayta boshladi. Adabiyot o‘zining bosh maqsadi-hayot muammolari bilan yashayotgan insonning komil timsolini yaratishga kirishdi.

Prezidentimiz Islom Karimov: «Ma’naviyat- insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir»¹, – deb e’tirof etganlaridek, ma’naviyatning muhim bir xususiyati odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qilishda yorqin namoyon bo‘ladi. Xalqimizning asrlar sinovida toblanib borgan mustahkam irodasi qadimiy ma’naviyatimiz, balki milliy o‘zligimizni saqlab qolishga asos bo‘ldi.

Davr va lirik qahramon masalasi adabiyotning barcha davrlarida, ayniqsa, o‘tmish davrida markaziy o‘rinlarni egallab kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Xuddi XXasrning dastlabki o‘n yilliklarida bo‘lgani kabi Istiqlol harakatlari boshlangan davrda u yana o‘z faoliyatini tikladi. Millat, Vatan tuyg‘ulari tasviriga ehtiyoj kuchaygan bir davrda lirik qahramon boshqa turdoshlariga qaraganda faollikni sezilarli darajada kuchaytirdi. U Vatan va Xalqning jonkuyar farzandi sifatida she’riyat sahnasiga chiqdi. Uning ovozida Erk tuyg‘ulari o‘ziga xos jarang kasb etdi.

Lirika va uning qahramoni masalasi adabiyotshunoslikning sevimli mavzui sifatida ko‘p bor bahs manbai bo‘lgan. Bu haqda “Poetika” asarining muallifi Arestoteldan tortib, to hozirgi adabiyotshunoslarga qadar o‘z fikrlarini bildirganlar. O‘zbek adabiyotshunoslaridan lirik qahramon haqidagi munozaraga S.Mamajonov, O.Sharafiddinov, N.Shukurov, U.To‘ychiyev kabi olimlar ham qatnashib, o‘z mulohazalarini ifodaladilar. Bundan tashqari, lirika va uning qahramoni haqidagi fikrlar I.Sultonning “Adabiyot nazariyasi”, uch jildlik “Adabiy tur va janrlar” kitobining 2-jildi, U.To‘ychiyevning “O‘zbek adabiyotida badiiylik” kitoblarida keltirib o‘tilgan. Shundan ko‘rinib turibdiki bu masala nafaqat rus, balki o‘zbek adabiyotshunosligining ham diqqat markazida turgan masalalaridan biriga aylangan.

Mavzuning dolzarbligi: Adabiyot taraqqiyotini tadrijiy o‘rganish uchun uning har bir davri haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmoq kerak. U yoki bu davr adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab olmay turib, uning umumiy adabiyotga qo‘shgan hissasini belgilab bo‘lmaydi. Shuning uchun ham bugungi ijodkorlarni qiziqtirgan muammolar, uni badiiy

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.19.

ifodalashdagi mahorat mezoni, ular yaratgan qahramonlarning o'z o'tmishdoshlaridan farqli va o'xshash tomonlari haqida fikr yuritish hamda bu davr adabiyotining o'ziga xos qirralarini ko'rsatishni taqozo etadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari: Bu davr ijodkorlari va ular yaratgan asarlarning o'zbek milliy she'riyatida tutgan o'rni, badiiy salmog'i, davr muammolarining ifodalashdagi o'ziga xosligi, asar markazida turgan qahramonning ma'naviy-estetik olami kabi tomonlarga baho berish ishning asosiy maqsadidir.

Ma'lumki, bitiruv malakaviy ish manbai sifatida tanlangan davr 1990-2000 yillar oralig'ini va yangicha dunyoqarashning shakllana borish jarayonlarini o'z ichiga qamrab oladi. Erk, Istiqlol, O'zlikni anglash hislari bu davr kishilari tabiatida ochiq ko'rina boshladi. Xalqdagi milliy o'z-o'zini anglash tuyg'ularini badiiy ta'sirchan qilib berish ijodkorning maqsadlariga aylana bordi.

Milliy o'zlikni anglash, Istiqlol tuyg'ulari hozirgi zamon lirikasida qay yo'sin va darajada ifodalanmoqda? Ushbu savolga javob topish maqsadida biz o'z oldimizga qo'yidagi vazifalarni qo'ydik.

- yangi davr she'riyatining o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishida, ayniqsa, milliylik tuyg'ularining teranlik kasb etishida 90-yillar she'riyatidagi an'analar samarasi;
- Erk, Ozodlik, Istiqlol, tarix, tilga hurmat tuyg'ularini ifodalashdagi ijodkorlarning mahorati;
- lirik qahramonning davr muammolariga faol munosabati, uning ichki nidolari orqali ruhiyatidagi iqlimlar silsilasi;
- milliy qadriyatlar himoyasi xalqning tili tarixi, ma'naviy-madaniy boyliklariga munosabatda yorqin namoyon bo'lishini;
- Shoir timsoli orqali elu yurt izzitoblari bilan yashayotgan qalbdagi ma'naviy poklik, iymon butunligi, fidoyilik, ruhiy uyg'oqlik kabi fazilatlarni berish o'zining yaxshi natijalarini namoyon etayotganligini ko'rsatish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi: Istiqlol nomi bilan atalayotgan 90-2000 yillar she'riyatining o'ziga xos tomonlari, lirik qahramon "men" tabiatidagi ruhiy-psixologik o'zgarishlar, uning Shaxs sifatidagi kamoloti, hayot voqealariga faol munosabati, mahorat masalalaridir. Lirik qahramonning vatan, millat, erk, istiqol haqidagi qarashlarining shakllanishida davr va zamon tuyg'ulari masalasini o'rganish ushbu bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishning obyekt: O'z oldimizga qo'ygan maqsadni amalga oshirish uchun ishda 90-2000 yillar she'riyatining faol vakillari E.Vohidov, A.Oripov, U.Azim. M.Yusuf, Z.Mirzayeva, SH.Rahmon, X.Xudoyberdiyeva, Baxrom Ro'zimuhammad va shu kabi

shoirlarning badiiy barkamol asarlari tahlil qilindi. Bu shoirlarning asarlari o'rganilganda, qiyosiy tahlil imkoniyatlaridan foydalanildi. Fitrat, Cho'lpon, Mirtemir she'riyatiga xos bo'lgan ayrim tomonlar bilan Vatan, Millat, Erk, Istiqol mavzuidagi she'rlar qiyosiy o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati: Ish 90-2000 yillar she'riyatining bir qator tomonlarini, keyingi yillarda erishgan yutuqlar asosida tekshirishni maqsad qilib olinganligi bilan ahamiyatlidir.

Bitiruv malakaviy ishdan qo'yidagi masalalarni ro'yobga chiqarishda foydalanish mumkin:

- Yangi davr she'riyatida lirik qahramon tasviri va badiiy mahorat masalalariga bag'ishlangan maxsus kurslar uchun ma'uza matnlarini tayyorlashda;
- kollej, litsey va kasb hunar bilim yurtlari uchun XX asr o'zbek adabiyotidan ma'ruza matni, majmualar tayyorlashda;
- XX asr o'zbek adabiyotida davrlashtirish, mazkur davr xos bo'lgan adabiy hayotni o'rganishda.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: Ish kirish, xulosadan va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan tashqari, 2 bobdan iborat bo'lib, boblar o'z navbatida har biri ikki fasldan tashkil topgan.

1- BOB Ijtimoiy muammolarning badiiy talqini va lirik qahramon

1.1 90-yillar she'riyatida milliy o'zlikni anglash va istiqlol g'oyalarining badiiy talqini

Zamonaviy lirika markazida turgan qahramon faqat mehnatdagi faolligi bilangina emas, pokligi, o'tmishu kelajakka munosabati bilan ham ibrat kasb etib borayotganligi; uning birdan-bir armoni o'zligini topish ekan, buni shoirona hissiyot, faylusufona mushohada, rassomona tasvirlarda berishga moyillik bugungi lirikaning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib borayotganligini ko'rish mumkin.

Bugungi she'riyatning peshqadam vakillari ijodida yangicha ruhdagi "men" qalbida Erkka, Istiqlolga chanqoqlik, So'zga, Tarixga, Vatanga, Millatga muhabbat tuyg'ulari quyuq rang va ohanglarda ifodalash kuchli borayotganligi bir qator she'rlarda namoyon bo'ladi. Keyingi yillarda yaratilgan Vatan mavzuidagi she'rlarda hayrat tuyg'ulari, "muqaddas dard" tasviri samimiy, teran badiiy lavhalarda ifodalanadi. Vatan, millat, til, istiqlol tuyg'ulari o'z ona yurtlaridan olisda bo'lgan fuqoralar qalbida o'zgacha dramalar yaratadi. Afsuski, qizil tazyiqlar tufayli issiq go'shalarini tashlab, muhojirlik azobini tortayotganlar sho'ro she'riyatida "vatangadolar" deb atalgan va ular sotqin, xon, millat dushmanlari sifatida qoralanib kelindi. Istiqlol harakatlari bunday siyosiy qarashlarning zaminida adolalatsizlik hukmron ekanligini isbotladi. She'riyatda bunday qarashlarga ham barham berila boshladi. Muhojirlarni siyosiy kurash maydonidani raqiblar sifatida emas elu yurt sog'inchi bilan yashayotgan farzand sifatida ruhiy-psixologik holatlar tasviri E.Vohidov, A.Oripov, X.Davron, R. Fayz, A.Qo'shoq, A.Suyun, U.Azim ijodida mahorat bilan beriladi.

E.Vohidov lirikasida tasvirlanayotgan vatan tuyg'usi o'zining rang-barang qirra va ohanglariga ega. U vaqtinchalik ayriliqda yashayotgan ("Vatan sog'inchi"), umrbod vatan armoni bilan nafas olayotgan ("Sultonmurod"), qolaversa, vatanda turib vatandan judo bo'lganlar haqida teran falsafiy mushohadalar to'yingan satrlarni yaratadi.

Shoir "Vatan sog'inchi"da ko'tarinki ohanglardan keng foydalangan bo'lsa, "Sultonmurod"da bu ohang o'z o'rnini mahzun navolardan keladigan saslarga- "Shashmaqom" ohanglariga bo'shatib beradi. Qalbning ma'naviy boyligi-vatandan judo etgan kimsalarga nisbatan uyg'ongan nafrat qarg'ish shakllarida ifodalanadi. Bu nido insonning davrga, siyosatga, zamon kemasining kaltabin darg'alariga nafratigina emas, haqli aybnoma sifatida ham yangraydi:

Shafqat qilmay baxtim qaro qilganlar

Shafqatga zor, baxti qarolar bo'lgay.

Meni vatanimdan judo qilganlar

Vatanda vatandan judolar bo'lgay.¹

Lirikaning go'zal namunalarida vatan tuyg'usi tilga, millatga, erkka muhabbat shakllarida jaranglamoqda. Erkka intilish-so'z san'atining azaliy maqsadi. Unga yetishmasdan turib o'zlikni tanish maholdir. CH.Ergash she'rlarining ko'pchiligida o'zligini tanishga intilayotgan inson ruhiyatidagi ziddiyatlar, botiniy kurashlar tasviri yotadi. U o'z "men"ini izlayotgan inson kechinmalariga xos qirralarni chizar ekan, "sochlarining uchlaridan to oyoqlarim tirnog'igacha-Meniki deb aytaman", degan qat'iy fikr asosiga o'z maqsadini jamlaydi. Uning

Kerak emas bu baxt, bu qudrat,

Bergin menga avval o'zligim,-

degan so'zlari samimiyligi bilan ajralib turadi.²

SH.Rahmon yaratgan lirik qahramon ham o'zligini topib borayotgan zamondosh. U o'zin "Erku muhabbatning muxtor elchisi" hisoblar ekan bu burchni faqat yonayotgan qalbdan chiqqan o'tli so'zlar vositasidagina bajarish mumkin, degan fikrda bo'ladi:

So'zlarni qayraylik,

Obdan toblaylik,

Idrok-la sovutib tag'in qayraylik,

O'zbekning qorako'z bolalariga

Bitta dunyo qolsin hayratlik.

Bu dunyo-so'z dunyosi, ona tilining sehrli olami. So'z avlodlarga millat, vatan, erk, istiqlol tuyg'ularini qo'yyadi.

Yangi davr lirikasi markazida turgan qahramon o'zining vatanga, millatga, tarixga, tilga va ulkan intilishlar evaziga kelgan erkka bo'lgan faol munosabati bilan o'tmishdoshlaridan farqlanib turadi. U o'z qalbiga tuyg'uni 80-yillar lirikasi qahramoni qalbidagi cho'g'dan oldi va uni alangalantira oldi. Istiqlol ruhi bilan sug'orilgan she'riyat markazidagi qahramon bu bilangina chegaralanib qolmadi. U asrimiz boshlarida maydonga kelgan lirik qahramon "men"tuyg'ulari bilan ham oshno bo'ldi.

Yurtimiz istiqlolga erishgach o'zbek adabiyoti o'z tarixiy taraqqiyotining yangi davriga ko'tarildi. Ijtimoiy hayotda bo'lgani singari adabiyotda ham demokratiya, oshkoralik va tanqidiy ruh kuchaydi. Yozuvchilarimiz so'z, matbuot va ijod erkinligiga to'la erishdilar.

Bu yangi davrda, ayniqsa, she'riyatimizda haqqoniylik va hozirjavoblik kuchaydi. Mustaqillik davriga kelib xalq va mamlakat hayotini yaxshilashga qaratilgan muammolar, oddiy

¹ Воҳидов Э. Ватанда ватандан жудо бўлгай... // Ёшлик, 1992, 2-3-сон, 2-бет

² Чўлпон Эргаш. Орзунинг оғир киприклари. Тошкент, 1990, 33-бет

inson qadr-qimmatini tiklash va ko‘tarish, ona Vatan va mustaqillik mavzulari tasviri birinchi o‘ringa chiqdi. O‘zbekiston mustaqiligidan faxrlanish tuygulari baralla kuylandi. Abdulla Oripov O‘zbekiston mustaqil respublika deb e‘lon qilingan Oliy Kengashning tarixiy majlisida (1991 yil 31-avgust) hayajon bilan bergan yangi she‘rida ana shu hayotbaxsh tuyg‘u xalqona soda va teran misra¹larda yorqin ifodalandi:

Safga tizil nabiram, otajonim tur endi,
Mustaqillik nash‘asin, haqqing bordir sur endi.
Qo‘lni berib qo‘llarga, bir tan bo‘lib yur endi
Elkamizga oftobning tekkanligi rost bo‘lsin
O‘zbekning o‘z urug‘n ekkanligi rost bo‘lsin.¹

She‘riyatimizda mustaqillikni qutlash va ulug‘lash g‘oyasi, uni asrash va mustahkamlash g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq holda aks ettiriladi. Bir guruh shoirlar tomonidan 1991-yilda hozirjavoblik va tezkorlik bilan yaratilgan “**Mustaqillik qasidasi**” da mustaqillikning qadri hamma narsada baland quyildi. Uni ko‘z qorachig‘day saqlash va mustahkamlash uchun bir tan, bir jon bo‘lib harakat qilish, qiyinchiliklardan mardona o‘tish maqsad sari dadil qadam tashlash g‘oyasi olg‘a surildi. Qasida qo‘yidagi singari tabiiy va otashin misralardan tashkil topgan.

Mustaqillik! Ko‘ylayman seni
Bor ovozim, o‘ylarim bilan.
Mustaqillik! Asrayman seni
Kerak bo‘lsa qo‘llarim bilan.
Mustaqillik! Asrayman seni
Kerak bo‘lsa hayotim bilan!...

Shoirlarimiz mustaqillikni qo‘llab -quvvatlab, uni har tomonlama mustahkamlash g‘oyasini olg‘a surar ekanlar, mustaqillikning asl mohiyatini faxr bilan ko‘rsatib ozodlikni bebaho, buyuk ijtimoiy ne‘mat sifatida tariflaydilar.

Abdulla Oripovning “Oliy ne‘mat” she‘rida tasvirlanishicha, bir hoja dardga yo‘liqib, davo izlab yelib yuguradi. Oxiri paymonasi to‘lib, dunyodan umidini uzadi. Shu choq eshigida ishlab yurgan va tabiblikka dahli bor bo‘lgan bir qul kirib, uni davolaydi. Xoji shifo topadi va qulga “qulga qilgan xizmatinning yo‘qdir bahosi” tila tilaganingni “sochayin boshingdan oltin va kumush”, “istasang, mulkimning teng yarmini beray”, deydi. Qul esa oltinning ham bahosi bor, agar mening xizmatim o‘zingiz aytganingizdek, bebaho bo‘lsa bebaho ne‘mat bering deydi.

¹ Орипов.А Танланган асарлар Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти. 1,2,3,4, томлар.(А.Орипов шеърларидан келтирилган шеърларнинг барчаси ушбу танланган сарлардан олинди.)

¹ Орипов.А Танланган асарлар Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти. 1,2,3,4, томлар.(А.Орипов шеърларидан келтирилган шеърларнинг барчаси ушбу танланган асарлардан олинди.)

Shunday qilib, qul bebaho boylikka-oltinga ega bo'lishdan ko'ra ozodlikni ustun qo'yadi va buni shoir mumtoz adabiyot an'analaridan ijodiy foydalangan holda mahorat bilan tasvirlab beradi.

Qul dedi: - bir nemat border - bebaho,
Unga sadqa bolsin molu mulk, dunyo
Falaklar bekordir uning qoshida
Malaklar bekordir uning qoshida
Unga nisbat bersa-qafasdir jannat,
U shundoq tansiq his, tengi yo'q ne'mat.
Sirni bilmoqliokni istardi xoja,
Qul dedi: - nemat jondan-da totliq,
Nomi Ozodlikdir, nomi ozodlik!

Mustaqillik tufayli adabiyotda chin hayotga tobora chuqurroq kirib borish, hayot haqiqatini butun borlig'i va murakkabligi bilan aks ettirish, voqeligimizni boyab-bezamasdan, asossiz maqtamasdan, bor haqiqatni roy-rost yozish, yuksak sifatli badiiy asarlar yaratishga qiziqish va imkoniyat kuchaydi.

Shuni quvonch bilan qayd etish lozimki, O'zbekiston yozuvchilari jamoasi orasida mamlakat mustaqilligining asl mohiyatini tushunmagan va uni qo'llab-quvvatlamagan birorta ham haqiqiy ijodkor yo'q. Yozuvchilarimizning barchasi O'zbekiston mustaqilligini samimiyat bilan kulaymoqdalar. Natijada asarlarimizning g'oyaviy mazmunidagina emas, shaklida ham sifat o'zgarishlari namoyon bo'la boshladi. So'z san'ati yangi mavzu, yangi g'oya va yangi obrazlar bilan boyidi.

Bu yangi davrda, ayniqsa, she'riyatimizda haqqoniylik va hozirjavoblik kuchaydi. Shoirларimiz mustaqillikning xalqqa bergan imkoniyat va imtiyozlarini tasvirlab, uni dil-dildan ulug'lar ekanlar, mustaqillik yo'lining o'ziga xos qiyinchiliklarini ham yashirmasdan ochiq aks ettirdilar. Mustaqillik ishiga, mamlakat rivojiga to'sqinlik qilayotgan nopoklik, manmanlik, noshukrlik, mansabparastlik, ish qilish o'rniga gap sotishlik, mahalliychilik singari ba'zi yaramas illatlardan fosh etdilar. Shoir Muhammad Yusuf mumtoz she'riyatimizning taniqli vakili Turdi-Farog'iy an'analarini yangi davrda rivojlantirib,

Qo'ygil Qo'qoningni, qo'ygil Surxoning,
Bir tuproq-ku axir, ota makoning...
Aziz vatandoshlar, menga ishonib
O'zbekni quritar mahalliychilik, - deb bong urdi.

Shoira Gulchehra Jo'rayeva esa mustaqil mamlakatimizning gullab yashnashini ta'minlashda xalqimizning bir maqsad sari birlashib harakat qilishi buyuk ahamiyatga ega

ekanini nazarga olib, «birlashgan o‘zar» degan xalq hikmati mazmunini she‘r mag‘ziga singdirib yubordi:

Ilhom birlash, imkon birlash,
inson birlash,
Maqsad birlash, matlab birlash,
vijdon birlash,
Buyuk davlat yo‘li birdir-
iymon birlash,
Quvvat birlash, qudrat birlash,
Turon birlash!

Mustaqillik davrida vujudga kelgan ijtimoiy lirika namunalari orasida 16 fevral (1999 y.) voqealari munosabati bilan yozilgan she‘rlar ajralib turadi. Ha, rost, yurtimizda mustaqilligimizning qadriga yetmay, uning buyuk ahamiyatini anglamay yoki anglashni istamay sarob ko‘chasida daydib yurgan ayrim nonko‘r shaxslar, e‘tiqodi soxta mansabparastlar ham yo‘q emas. 16 fevral voqealari buni ochiq ko‘rsatdi.

Yozuvchilarimiz 16 fevral voqealariga munosabat bildirib yozgan asarlarida bu yovuzlikni mustaqillikka xuruj, xalqimizga suiqasd ekanini fosh etib, bizning ishimiz haq, istiqloq yo‘li adolatli, Prezident siyosat to‘g‘ri siyosat ekanini badiiy so‘z vositasida yurakdan izhor etdilar. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, SH.Raxmon, H.G‘ulom, N.Narzullayev, Azim Suyun, Habib Sa‘dulla, Rauf Parfi, Yo‘ldosh Sulaymon, Sa‘dulla Hakim, Anvar Obidjon, Oydin Hojiyeva, Gulchehra Nurullayeva, Gulchehra Jo‘rayeva, Mirpo‘lat Mirzo, To‘ra Sulaymon kabi shoirlar tomonidan hozirjavoblik bilan yozilgan she‘rlarda O‘zbekiston mustaqilligiga, yo‘lboshchimiz joniga qilingan suiqasd, xalq baxtiga qilingan suiqasd ekani ochib tashlandi. Terrorchi-jinoyatchilar ayovsiz jazoga loyiq ekaniga shoirona misralarda kafolat berildi. Normurod Narzullaev 19 fevral kuni hozirjavoblik bilan yozgan «Xalqim, sen bilan qalbim» nomli she‘rida:

Yovuz xabar til-til etdi bag‘rimni,
Qanday axir izhor aylay qahrimni,
Qabih kaslar bukolmagay qaddimni,
Ey, ona xalqim, sen bilan qalbim...
Yaxshidan nom, bog‘bondan bog‘ qolajak,
Yomon odam haq jazosin olajak,
Biznikidir yorug‘ kunlar-Kelajak,
Ey, ona xalqim, sen bilan qalbim!-deb kuyladi.

Mustaqillik davrida inson qadri-qimmatli va uning bunyodkorlik mehnati, aql-irodasi, olijanob insoniy tuyg'ulari haqida ham anchagina she'riy asarlar yozildi. H.G'ulom, Mirmuhsin, R.Bobojon, Nazarmat, J.Jabborov, E.Oxunova, H.Sharipov, D.Fayziy singari ko'pni ko'rgan, tajribali shoirlarimiz bu mavzularni yoritish orqali mustaqilligimizni dil-dildan qo'llab quvvatladilar.

Yana bir iste'dodli shoirimiz Usmon Azim she'riyatida ham ona Vatan obrazini va O'zbekiston mustaqilligini rang-barang shakllarda ixlos bilan kuylash xususiyati ko'zga yaqqol tashlanadi. O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning «Insonni tushunish», «Holat», «Oqibat», xususan, «Ko'zgu», «Surat parchalari», «Dars» to'plamlaridagi yangi she'rlarda inson va mamlakat hayotiga doir rang-barang tuyg'ular tugyoni va hayotbaxsh g'oyalar zo'r hayajon bilan tasvirlab berilgan. Shuning uchun ham shoir:

Oynoq-oynoq, og'ir-og'ir oqmoqda umrim,
Goh ko'z yumib, goh ufqqa botmoqda umrim,
Bor jonini sadqa aylab she'rga, qo'shiqqa,
Siz yo'qotgan sururlarni topmoqda umrim-deb yozishga haqlidir.

Shunisi muhimki, shoirlarimiz mavzuni yoritishda milliy xususiyat, milliy xarakter belgilaridan o'rinli foydalandilar. Shoira Xosiyat Bobomurodova bir she'rida O'zbekiston mustaqilligini ulug'lar ekan,

Ota yurt, ona xalq erking o'zingda,
Belbog'ing belingda, burching o'zingda,
Ayoling bo'shamas beshik boshidan,
Erlaring g'ururli, ko'rking o'zingda,-deb yozsa, boshqa bir she'rida ayollarimiz fe'l-atvoridagi ajoyib xislatlarni umumlashtirib, jonli poetik obraz yaratadi:

Er-pir, deb qo'l uzatgan ham shul,
Aybing yopgan, tuzatgan ham shul.
G'olib yo'lga kuzatgan ham shul,
Ayolingni asragil elim!

Shoirlarimiz mustaqillik saodati, fuqarolik burchi, ona yurtga mehr-sadoqat, O'zbekistonning porloq kelajagiga komil ishonch tuyg'ularini ma'naviyatimiz, milliy qadriyatlarimiz, dinu iymonimiz, o'zbekona urf-odatlarimiz bilan uzviy bog'liq holda kuylaydilar.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida janr, til va uslub jihatidan ham bir qator yangiliklar sodir bo'ldi. She'riyat tili dabdabali «qizil» so'zlardan, ko'pchilikka tushunilishi qiyin bo'lgan chet el terminlaridan qutila borib, xalq jonli tiliga yanada yaqinlashdi. Shirin zabon shoira Oydin Hojiyeva she'riyati bu jihatdan ham ko'pchilikka manzur:

Yuzing qizil bo'ldi saltanat ichra,
Dovrug'ing shoyon yuz mamlakat ichra,
Sen uyqung buzilmay, tinch tishlar ko'rding,
Bir o'g'ling bedorxob aziyat ichra.
Qarchig'ay qush kabi sezgir siyog'i,
Doim uzangida uning oyog'i.
Ulug' minbarlarda shoningdan soylab,
Yetti iqlim ichra yoqdi chirog'ing!
Zulmat devlarini yenggan temir tan
Fidoi mardingni asragil, Vatan!
Ozodlik va hurlik yulduzin asli
Sen uning ismida topgansan, zotan!

(«Ozodlik yulduzi»).

Bu davrda she'riyatimizning muhim sohasi bo'lgan qo'shiq janrida ham jiddiy o'sish-o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek qo'shiqchiligi xazinasi mazmuni ham, shakli ham yangi zamon ruhiga mos bo'lgan «Yurt ishqida yonaman», «O'zingdan qo'ymasin xalqim», «Vatan aziz», «O'zbek ayoli», «Temurzoda», «Iftixor», «Sog'inib uyg'onar tonglar», «El omon bo'lsin» singari go'zal va dilbar qo'shiqlar bilan boyidi. Bu yangi qo'shiqlarga xos asosiy xususiyat shundaki, ularda xayoliy-romantik kechinmalar emas, balki ona Vatan, mustaqillik, taraqqiyot va taraqqiyotning asosiy omillari, xalqimiz ongi va dunyoqarashidagi buyuk o'sish-o'zgarishlar tarannum etildi.

A.Oripov, E.Vohidov, N.Narzullayev, M.Yusuf, U.Azim, H.Xudoyberdiyeva kabi iste'dod sohiblari qo'shiqlarida ona Vatanni, ona Vatan tuyg'usining qanchalik muqaddas, qanchalik bebaho ekanini, bu tuyg'uni boshqa hech qanday tuyg'uga tenglashtirib yoki almashtirib bo'lmasligini dil-dildan kuyladilar.

Mustaqillik davrida o'zbek she'riyatida sevgi-muhabbat, axloq-odob va diniy mavzularda ham zamonaviy qo'shiqlar yaratildi. Ularda istiqloq sharofati bilan yuzi yorug', imoni but, qaddi baland bo'lgan mehnat ahlining kundalik amaliy faoliyati, quvonch-u tashvishlari, ruhiyati, orzu istaklari o'z ifodasini topdi. Ana shunga ko'ra yangi qo'shiq-she'rlarimizni o'qib (tinglab) xalqimizning kayfiyatini, hayotdagi o'sish-o'zgarishlarga va umuman mustaqilligimizga munosabatini yaqqol sezish-bilish mumkin. Normurod Narzullaevning respublika tanlovida (1999y) birinchi o'rinni olgan «Sog'inib uyg'onar tonglar» qo'shig'i yoki Muhammad Yusufning milliy tarovat bilan bezangan zamonaviy qo'shiqlari bunga yaxshi misol bo'ladi.

Mustaqillik davrida xilma xil she'rlar, qo'shiqlar bilan birga, liro-epik asarlar (ballada, doston va hatto she'riy romanlar) ham yozildi. Lirika singari liro-epik she'riyat ham yangi

zamon ruhini to'g'ri aks ettirdi. Dostonchilikda haqqoniylik, oshkoralik, avvallari aytish mumkin bo'lmagan gaplarni dangal yozish, hayotiy muammolarni ko'tarish, odamlar ongiga bor haqiqatni chuqur singdirish odati kuchaydi.

Azim Suyunning «O'zbekiston», Xurshid Davronning «Vatan haqida yetti rivoyat», Sulton Akbaryning «Qatag'on», Omon Matchonning «Nega men?», Ikrom Otamurodning «Uzoqlashayotgan og'riq», Habib Sa'dullaning «Jarohat», Jonibek Subhonning «Bezovta ruh», Abdumajid Azimning «Sarbon» kabi dostonlarida yaqin o'tmish voqealari, shaxsga sig'inish davri fojialari tasvirlangan, shuningdek, Vatan xoinlarining O'zbekiston mustaqilligiga qarshi qilgan yovuz tajavvuzlari fosh etilgan.

Sulton Akbaryning «Qatag'on» dostonida sovet davridagi qatag'on fojiasi xalqona sodda va teran misralarda ochib tashlangan:

Yetti kecha tergov, siquv surunka,
Narkomning egnida qonli tirinka.
Ki g'arov yurgizib tirnoq shilarlar,
O'likni turg'izib qistiq qilarlar,
Shu qadar farang bo'b ketganmi jazo!
Shu qadar qiyinmi sho'roda qazo!
Chalajon cho'zilsa, suvga pisharlar,
Qoy yutgan ajdoha yanglig' shisharlar.
Axir, u chibin-ku, emas karkidon,
Otib yuborsaydi tezroq arkidan.

Sulton Akbary dostonida hayot haqiqatini, xususan, 1937 yilgi qatag'on voqealarini tasvirlashda xalq og'zaki ijodiga xos uslubdan va jonli xalq tili boyliklaridan mohirona foydalangan. Natijada «Qatag'on» dostoni g'oyat ta'sirli va xalqchil bo'lib chiqqan.

Mustaqillik davri dostonchiligida Habib Sa'dullaning hozirjavoblik bilan yozilgan «Jarohat» asarining o'z o'rni va ahamiyati bor.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad bu asar haqida «Shoir Habib Sa'dullaning dard bilan yozilgan dostonini 16 fevralda Toshkentda yuz bergan yovuzlikka uning la'nat va nafrati deb bildim...Habibning g'azab va alam bilan bitgan ushbu dostoni o'quvchini loqayd qoldirmasligiga ishonaman. Dostondagi chaqnab turgan satrlar mening, sizning, barchamizning qonimizni qaynatib turgan alam, bo'g'zimizdan otilib chiqayotgan bir olovli vulqondir»-deb haq gapni yozgan edi.

Dostonning mundarijasi boy va serjilo. «Bag'ishlov» va «Xotima»dan tashqari asar «Toshkent», «Suiqasd», «Darbadarlar», «Ajdodlar hukmi», «Uchrashuv», «Yo'l boshchi», «O'zbekiston» nomli yetti lavhadan iborat. Lavhalardan har biri o'zicha mustaqil va tugal. Shu

bilan birga, ular ichki mantiq va uslub jihatidan bir biri bilan o‘zaro mustahkam bog‘liq. Darhaqiqat, «Jarohat» dostonining o‘ziga xos asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, unda boshdan-oyoq davom etuvchi yaxlit voqea va tugal syujet yo‘q. Lekin dostonda ayrim-ayrim lavhalar tasviriga singdirilgan yaxlit g‘oya, yaxlit fikr, yagona uslub- ichki mantiqiy bog‘lanish mavjud. Ana shu bog‘lanish «Jarohat» bir butun asar-o‘tkir doston holiga keltirgan.

Doston dabdabali va jimjimali, yaltiroq misralardan emas, balki yurakdan tilib chiqqan yolqinli va quyma misralardan tashkil topgan. «Bag‘ishlov» qismidagi misralardanoq bu fazilatni ochiq ko‘rish mumkin.

Vatan, senga otilgan o‘q
Mening ko‘ksim teshib o‘tgay,
Sening jismingdagi og‘riq
Mening jonimni og‘ritgay.
Agar yosh oqsa chashmingdan
Oqur ikki ko‘zimdan qon.
Oh ursang gar mening
Ohim sharori dunyoni tutgay.

Butun xalqqa g‘anim kori
Laindan ham o‘tib ketgay,
Lainlardan o‘zing asra,
Xudoyim, yurtu xalqimni,
Dilim og‘riqlari chak-chak
To‘kilmish dardli dostonga,
Degayman, qalbi ko‘rlarni
Vatan, nonu tuzing tutgay.

Shunday qilib, o‘zbek she‘riyati mustaqillik davrida poklanish, yangilanish, bor haqiqatni cho‘chimasdan baralla aks ettirish yo‘lidan borib, o‘z mavzu doirasini zamonaviy dolzarb mavzular hisobiga kengaytira bordi. Shuningdek, o‘z g‘oyaviy mundarijasini yangi-yangi poetik mazmun va hikmatli fikrlar bilan boyitdi. Natijada hayotiylik va zamonaviylik ustun xususiyat sifatida tobora barqaror bo‘ldi.

Bugungi she‘riyatimizdagi lirik qahramon o‘z yelkasida zaminning yukini ko‘taruvchi odam. Uning mustaqil yurt tashvishi yo‘lidagi bunyodkorlik mehnati, aql-zakovati va farzandlik burchi shoirlarimiz tomonidan milliy qadriyatlar va milliy ifoda na‘munalariga bog‘liq holda ochib berilishi ham xarakterlidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda O‘zbekiston xalq shoiri Normurod Narzullayevning “Barkamol avlod qasidasi” she‘ri kitobxon diqqatini tortadi.

Barchinoylar, Alpomishlar yonida yondosh
Shiroq yodi, Tumarislar iymoni yashar,
Do'stlar bo'lsa bir-biriga ahil, yelkadosh,
Yuksak cho'qqi ularniki, davondan oshar.

Mustaqil yurtga kamarbasta bo'lish, butun borliqni yurt shon-shavkati uchun bag'ishlash
Halima Xo'doyberdiyevaning lirik qahramonlari xarakteriga xos bo'lgan fazilatlardan.

Shoira lirik qahramoni ma'naviy yetuk qalbga va siyosiy tushunchaga ega inson. Har elga bayroq
kerak xilpiragan,

Qo'llar kerak, ko'tarmoqqa chidasalar,
Garchand men bir devordirman zax, nuragan
Yarab bergum agar bayroq qadasalar.

Bugungi kun she'riyati haqida to'xtalganda, unda ijtimoiy siyosiy lirikaning asosiy pafosini mustaqillikni asrab-avaylash va uni mustahkamlash g'oyasi tashkil qilayotganini qayd etish mumkin.

Mustaqillik davrida she'riyatimizda mehnatini e'zozlash, turmush madaniyatini ko'tarish, tabiatni asrash, tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish. Orol dengizini halokatdan saqlab qolish mavzularida ham ko'plab o'tkir she'rlar yozildi. Shuningdek, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va buning buyuk ahamiyati haqida ham she'rlar yaratildi. Bu turkum she'rlarga xos asosiy xususiyat shundaki, ularda (xususan, A. Oripov, E. Vohidov, Azim Suyun, Halima Xudoyberdiyeva, Tohir Qahhor, Abdulla Sher) asarlarida, o'zbek tilining boyliklari va o'ziga xos muhabbat bilan yoritilgan. Tohir Qahhor:

Tilimiz bir quyoshki, u kunu tun sochar nur,
U bir gulzorki, so'nmas, rangidan yashnar umr,
U bir yerki, o'lsak ham, unda yashay olurmiz-deb yozgan edi.

Mustaqillik davrida she'riyatimizda ozodlik va fuqarolik burchi, vijdon va sadoqat, haqiqiy insoniylik va do'stlik, halol ishlab halol yashash, ahloq odob, sevgi-muhabbat, oila va nikoh singari mangu dolzarb mavzularda ham qator yorqina satrlarlar yaratildi. Bu ijodiy ishda Oydin Hojiyeva, X. Hudoyberdiyeva, E'tibor Oxunova, Tursunoy Sodiqova, Gulchehra Nurillayeva, Zebo Mirzayeva, Zulfiya Mo'minova, Sharifa Salimova, Xosiyat Bobomurodova singari ayol ijodkorlarimiz ham faollik ko'rsatdilar. Ular xususan onalar va mehnatkash xotin-qizlar faoliyati haqida jonkuyarlik bilan yozgan she'rlarida hayotdagi ijobiy tomonlarni ham, mashaqqatli va noxush jihatlarni ham ro'y-rost aks ettirdilar.

Shunisi ma'lumki, shoirlarimiz mavzuni yoritishda milliy xususiyat, milliy harakter belgilaridan unimli foydalandilar. Xosiyat Bobomurodova bir she'rida mustaqillikni ulug'lar ekan,

Ota yurt, ona xalq erkin o‘zingda
Belbog‘ing belingda, burching o‘zingda
Ayoling bo‘shamas beshik boshidan
Erlaring g‘ururli, ko‘rking o‘zingda,-deb yozsa, boshqa bir she‘rida ayollarimiz
fe‘l-atvoridagi ijobiy xislatlarni umumlashtirib, jonli poetik obraz yaratdi:

Er-pir deb, qo‘l uzatgan ham shul
Aybing yopgan, tuzatgan ham shul
G‘olib yo‘lga kuzatgan ham shul,
Ayolingni asragin elim!

Shoirlarımız mustaqillik saodati, fuqarolik burchi, ona yurtga mehr-sadoqt, O‘zbekistonning porloq kelajagiga komil ishonch to‘yg‘ularini ma‘naviyatimiz, milliy qadriyatlarimiz, dinu-iymonimiz, O‘zbekona urf-odatlarimiz bilan uzviy bog‘liq holda ko‘yldilar.

A.Oripov, E.Vohidov, N.Nazullayev, M.Yusuf, U.Azim, H. Xudoyberdiyeva va boshqa iste‘dod sohiblari o‘z she‘rlarida ona Vatan, Ona Vatan tuyg‘usi qanchalik muqaddas, qanchalik bebaho ekanini, bu to‘yg‘uni boshqa hech qanday tuyg‘uda tenglashtirib yoki almashtirib bo‘lmasligini dil-dildan ko‘yladilar. Milliy o‘z-o‘zini anglash, eng avvalo, Vatanni, Millatni tanishdan, qvolaversa, uning boy tili va tarixini chuqur bilash, qadrlashdan, ma‘naviy qadriyatlarini tiklash, poklanishdan boshlanadi. Istiqlol she‘riyati lirik qahramoni ana shuoarni chuqur anglab yeta olgan intellektual shaxs. Ma‘naviy erk tushunchalariga katta qalb bilan yondoshayotgan lirik “mmen” ko‘ksmdagi Iztirob, Dardning ijtimoiy ildizlari bor. Vatan va Millat dardi uning qalb meredianilarini kesib o‘tadi.

1.2 She‘riyatda davr muammolar va tarixiy shaxs timsoli.

Bugungi she‘riyat markazidagi qahramon davr kabi bedor, serharakat bo‘lishi bilan birga teran fikrlay oladigan inson hamdir. Lirik qahramon faoliyatidagi bunday o‘zgarishlar ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz berayotgan voqea-hodisalar bilan chambarchas bog‘liqligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak. U faqat mehnatda faolligi bilangina emas, ma‘naviy butunligi bilan ham o‘z o‘tmishdoshlaridan farqlanib turadi. U bolasidan-da paxtani ortiqroq sevadigan, imonu

e'tiqodini qurbon qilishga tayyor turgan shaxs emas, farzand timsolida millatning o'tmish, buguni va kelajagini his qiladi. Uning nazarida ma'naviyat daraxtlarining rivojisiz xalqning qaddini, qadrini tiklab bo'lmaydi. Bu sifatlarga bugungi she'riyat birdaniga erishgani yo'q. adabiyotdagi milliy-ma'naviy tozarish ildizlarini asrimizning dastlabki ikki o'n yilligi davrida yaratilga asarlardan, qolaversa, 80-yillar lirikasi namunalaridan ham qidirmoq joizdir.

70-80- yillar she'riyatida faol lirik qahramon deganda ko'proq mehnatda fidoiylik ko'rsatgan insongina tushunilgan edi, uning ruhiyatidagi silsilalar, shaxs sifatidagi qirralar, davr taraqqiyoti va shaxs ma'naviyati bilan bog'liq bo'lgan tomonlar tasviri ko'proq ikkinchi o'ringa tushib qolganday bo'ldi. Bunday timsollar davr taqazosi bilan yaratilganligi e'tirof etilgan holda, ularning ma'naviy olamlariga e'tibor bir oz sust bo'lganligi ta'kidlanib va o'tgan o'n yilliklar adabiyotida "unutilgan" bu muhim nuqtani istiqloq she'riyati markaziga ko'cha borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Yangi davr lirikasi namunalarida davrning og'riqli masalalariga murossasizlik bilan qarash tuyg'ularini liro-publitsistik ohanlarda berishga moyillik kuchli tus olib borayotganligi E.Vohidovning "Biz ishlayapmiz", "Arslon o'rgatuvchi", "Qumursqalar jangi", M. Kenjabekning "Fikrim yorug' mening", SH.Rahmonning "Yashamog'im zarur", "Ko'zingizni oching", "Umr qumsoat" kabi she'rlari tahlili misolida ochib berish mumkin.

E. Vohidovning "Biz ishlayapmiz" she'ri markazida mehnatkash o'zbek paxtakori turadi. Haq so'z tarfdori bo'lgan dehqonning yolg'onlarga, shuhrat- paraslikka qarshi ichki isyoni asar dramatzimini kuchaytiruvchi vazifasini o'tay olgan.

"Bobodehqon" emas, biz oddiy dehqon
Shuning uchun gapning to'g'risi ma'qul
"Paxta ishq"deding, bu ishqmas, inon,
Paxta jononamas, gul ham emas ul
U peshona teri, mashaqqat, ozor
Elkadagi yuk u-bizlarga meros.

Lirik qahramonga soxta shon-shuhrat, maqtov so'zlari emas, samimiy nigoh, pokiza lutf kerak. Undagi komillk ma'naviy-ruhiy ildizlar bilan bog'liq bo'lgani uchun o'zgalarning ham ana shunday bo'lishini istaydi.

O'z yangi "meni" bilan she'riyat osmonida iqlim yaratganlar safida M. Kenjabekning ham alohida o'rni bor. Uning "Nivelir" she'ri markazida "men" haqiqatni chappa ko'rsatuvchi, yolg'onlarni rost deb pullovchi kimsalarga o'z munosabatini dangal aytadi.

Men ona zaminga bog'liqman, ayon,
Nivelir ko'zlardan jafo jondadir.
Oyog'im yerdadir mening har qachon,

Oyog'im yerda-yu, yer...osmondadir.

Istiqlol she'riyatining peshqadamlari ijodiga xos fazilat she'riy iste'dodgina emas, balki fidoyi odamiylik hamdir. Shoir "men"i bilan lirik "men" o'rtasida umumiy mushtaraklik nuqtalarini tobora ko'paya borayotganligi buning yorqin misolidir.

Bu davr she'riyatida Ruhning rangin manzaralari nozik badiiy chizgilarda berilayotganligi quvonarlidir, lirik qahramon zamondoshlariga qarata goh badiiy xitoblart qiladi, goh publitsistik ohanlarga davr dardlarini singdirgan holda bugunning: "Odamman, odamning so'ziga tushin", "Buning uchun esa", "O'ldir ichingdagi xoinni o'ldir" deya qat'iy da'vatlar qiladi.

E. Mejelaytisning "She'riyat o'z davri hodisalari, o'z davri g'oyalari bilan to'yingandagina boy va ahamiyatlidir" degan gaplari ayni bugunning she'riyati uchun aytilgandek.

Ma'lumki, keyingi 20 yil ichida jamiyatda qator tarixiy voqealar yuz berdi. Mustamlakachilik siyosati qanchalik niqoblanmasin o'zining dahshatli qiyofasini ko'rsatib qo'ydi. Asrlardan beri bir-birlari bilan tinch-totuv yashab kelayotgan xalqlar bir-birlariga o'q otdi. Bular nafaqt iqtisodiy-siyosiy zilzilalarni, balki ma'naviy tanazzul darzlarini ham kattaytira bordiki, bunga adabiyotning befarq qarashi mutlaqo mumkin emas edi. Publitsistika va she'riyat oldingi saflarda turib, davr muammolari haqida bong urdi, uyqudagi elni uyg'otish taraddudu bilan yashadi.

Davr og'riqlari o'zinig badiiy liboslariga ega bo'lar ekan, ularda turmushning turfa ranglar jilvalanadi. Goh oq, goh qora, goh zangori, goh qizil ranglardan foydalanadi. Keyingi yillarda yaratilgan tabiat mavzuiga bag'shlangan she'rlarning bir guruhida mahzun kayfiyatlarni ifodalovchi ranglardan foydalanilmoqdaki, buning tabiiy asoslari bor. Shunday bir holatlar bo'ladiki, she'r to'g'ridan-to'g'ri hayot voqelariga nigoh tashlaydi, uni butunicha o'z ko'zgasiga sig'dirmoqchi bo'ladi. Ularda ijtimoiy-falsafiy ruh lirik kechinmalarni o'z ortidan yetaklaydi.

G.Nurillayeva, M.Murodova, H.Ahmedova kabi shoirlar elu yurt tashvishi bilan yashayotgan mushfiq ona timsolini yaratishni maqsad qilib olar ekanlar, uning armoni farzandlarida komillikni ustivor holda ko'rishdir. U komillik qalbga, tabiatga va jamiyatga pokiza e'tiqodda, fidoiylikda ko'radi. "Fitna-fasodlar xil" ni, "Ulkan zavodlar seli pushti" ni qirqayotgan avlodining ertangi kuni lirik "men"-Onani bezovtalantiradi. Oq paxtani qora dog'larini ko'rsatmasdan, insoniyatni bundan ogoh etmasdan turib uning qalbi halovat topa olmaydi. "O'z jigarini o'shlab paxtazorda o'lgan" dehqonning zuryodi "sarg'imtir tus" olgan ekan, uning ertasi yo'q. Undan yurtning pahlavonlari yetishib chiqmaydi. Kelajak aqli noqis, jismi majruh bolalar bilan esa qaddini tiklayolmaydi.

Lirik “men” ma’naviy butunlikni yaratuvchi kuchlardan biri tabiat softligi ekanligiga ishonadi, tabiat himoyasi har bir tirik jonning burchi ekanligini alohida takidlaydi.

Bunday muammolarga bag‘shlangan ehtirosli she’rlarni M. Kenjabek ijodida ham ko‘plab uchratish mumkin. Uning “Sariosiyo o‘rmoniga sayohat”, “Xongul” she’rlarida xalqning katta dardlari ifodasini ko‘rish mumkin.

“Xongul” da “Go‘zallikning kalla suyagi” dan dahshatga tushgan qalb kechinmalaridagi tebranihlar shoirona dard va ehtiros omuxtaligida beriladiki, bu badiiy fikrning tadrijiy rivojini ta’minlaydi. Badiiy fikr va ehtiros misrama-misra kuy ohanglari yanglig‘ mavjlana boradi. Bir vaqtlar olamni o‘z go‘zalligi ila maftun etgan dardli ko‘zlarning dahshatli g‘orida “ovchi chumolilar izg‘r bemalol”. Bir vaqtlar tabiat va insonda mehr, ma’sumlik nurlarini harakatlantirgan vujud endi qalbga qo‘rquv alangalarini tashlamoqda. Vahshiylikka yem bo‘lgan go‘zallik lirik “men” qalbida bir qung‘iroq yanglig‘ jaranglab, olamni ogoh etmoqda.

Lirik “men” Bug‘u fojiasida shunchaki halokatni emas, chuqur ijtimoiy fojialarni ko‘radi. Shuning uchun ham “Payg‘ambar oroli mening yuragim, Bo‘rilar yeb ketar ohularimni” deya faryod chekadi. Tabiat ohulari bilan birga qalb ohular-ma’naviyat ohularini hamhimoyalamoq bugunning fidoiy farzandlari oldidagi burch ekanligini yana bir bor ta’kidlaydi: “Bag‘rimga snchilar ba‘zan suyagi. Ulgan kiyiklarning-tuyg‘ ularimning ”.

A. Oripovning “Orol uchun” she’rining ijtimoiy-falsafiy qamrovi keng. Lirik “men” xayollaridagi fikrlar kurashi, ishtibohlar tasviri orqali inson oldidagi burch mas’uliyati haqida fikr yuritilad. Orolning o‘z sohillaridan chekina borishi tuzlar bo‘ronini yaratadi, bu esa bugungi kunda insonni halokat sohili tomon sudramoqda. Bunga loqayd boqayotgan qalbin uyg‘otish lirik qahramonning burchiga aylangan. U “merosiy xudbinlik borligi uchun qaramay quyibmiz afsus, orolga” deya nadomatlarini aytish bilangina chegaralanmaydi.

Otang ketsa agar, ota bularsan,
Onangning o‘rnini bosgay qiz, singil
Dengizing qurisa ne ham qilursen,
Qayga bosh urarsan ey munglig‘, ko‘ngil.

Keyingi yillar o‘zbek lirikasi markazidagi qahramon tabiatning faol va fidoiy himoyachisi sifatida o‘z vorislaridan farqlanadi. U o‘zini tabiatning hukumroni emas, jonli bir a‘zosi deb biladi.

Istiqlol she’riyatida Navoiy, Bobur, Furqat, Fitrat, Cho‘lpon, U.Nosir, Oybek kabi shoirlar hayoti va faoliyatidagi kuchli dramatik lavha va lahzalarni she’r syujetiga ko‘chirishdan maqsad davrning murakkab jumboqlarini, ularga qalam ahlining, munosabatlarini har tomonlama badiiy ta’sirchan qilib ifodalashdir. O‘zbek shoirlari faqat o‘z millatlariga mansub ijodkorlar timsollarinigina yaratish bilan chegaralanib qolmadilar, ayniqsa, keyingi yillarga kelib mavzu

doirasini ancha kengaytirdi, jahon adabiyotida maktabini yaratgan san'atkorlar timsollarini yaratish ham sezilarli tus oldiki, bu albatta, ularning fikr va tasvir ufqi kengaya borayotganligini belgilaydi.

O'zbek she'riyatining bugungi peshqadam vakillari tomonidan yaratilgan tarixiy shaxslar timsolini qo'yidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

- a) shoir (aniq tarixiy shaxs)
- b) fan va madaniyat daholari (Beruniy, Naqishbandiy kabi)
- s) davlat arboblari (Temur, Chingizxon, Boyqaro kabi)

timsollarni aks ettiruvchi she'rlar.

Tarixiylik va zamonaviylik, tarixiy shaxs va lirik "men" o'rtasidagi ruhiy yaqinlik holatlari Boburga bag'ishlangan she'rlarda kuchli dramatism orqali ifodalanayotganligini kuzatish mumkin. Bugungi she'riyatning peshqadam vakillari bu ulug' siymoga xos ibratli tomonlari, uning hayotida yuz bergan dramatismga to'la voqealarni qalamga olar ekanlar, shoir lirik timsolini yaratishni niyat qilib oladilar. Ularni, albatta, ustozlari qalbida kechgan tuyg'lar, yurt sog'inchi, do'st ag'yorligi oqibatida yuz bergan fojialar iztirobga soladi. Sog'inch dardlarining badiiy ifodasi bo'lmish bu she'rlarda bobur ruhiyatining turli iqlimlari o'z badiiy inkishofini topgan. Bu she'rlarni bir-biriga bog'lab turgan nuqta-shoir qalbidagi iztiroblardir. YA'ni shoh va shoirning ichki kurashlari ular she'rlarining asosiy konfilektiga aylangan. E.Vohidov, X.Davron, SH Rahmon, M.Kenjabek, T.Nizom kabilarning Bobur haqidagi she'rlarida ana shu ruh kuchlidir.

M.Kenjabek Bobur ruboiylarining yetakchi motivlaridan ruhlanib, surati shoh, lekin sifati darvish tabiatli shior bo'lgan shaxs timsolini yaratadi. Tasavvuf she'riyatining an'anaviy timsollaridan bo'lmish shoh va gado (darvish) bu yerda Bobur harakterini ochishda qo'l kelgan. Falakka (yaratganga) xitob tarzidagi bu she'rda qahramonning ichki nidolari orqali o'z taqdiri orqali o'z taqdiridan noroziligi ifodalanadi:

YO falak! G'aroyib bir ish qilmishsan,
Boshimga mangulik tashvish solmishsan;
Ayt, mening o'zimni shoh etib nechun
Nechun yuragimni darvish qilmishsan?!

"Kelajakka maktub" ni Bobur haqidagi tarixiy ma'lumotlar asosida yozilgan hujjatli manzuma deyish mumkin.

Xalqimiz tarixi va milliy qadiriylari haqida asar bitish bugungi adabiyotimizdagi dolzarb masalalardan bo'lib qoldi. Ana shunday dolzarb masalalardan biri Amir Temur va temuriylar davrining badiiy tarixini bunyod etish bilan bog'liq.

Milliy istiqlol davri adabiyotida Sohibqiron va uning avlodlar hayoti va faoliyati haqida ilmiy-tarixiy tadqiqot asarlarini yozishga, temuriylar davriga oid mu'tabar, asl manbalarni nashr etishga keng yo'l ochildi.

Buyuk saltanatning asoschisi bo'lgan Amir Temurning davlatchilik tajribasini milliy g'urur va faxr bilan tilda ola boshlaganimizda ruhiy madad bo'lmoqda. Ijodkorlarimiz ulug' Sohibqiron Amir Temur haqida asarlar yoza boshlagan ekan, ular birinchi navbatda bugungi avlodni bobokalonlarimizdagi vatanparvarlik va millat fidoiyligi, insonparvarlik fazilatlarini bilan oshno etishni maqsad qilayotganlari bejiz emas.

Bugungi she'riyatda Amir Temur va temuriylar mavzui jahon va qadim turon xalqlari tarixi, milliy qadriyatlar va milliy davlatchilik tizimi masalalari bilan uzviy bog'liq holda falsafiy poetik mushohada gohida ijtimoiy-publitsistik yo'nalishda badiiy talqin qilinmoqda.

Barat Boyqobilovning "Qutbi millat" she'ridagi lirik qahramon qo'tbi millat bo'lgan buyuk Sohibqiron tabarruk nomining ulug'lanishi o'rniga tahqirlanganidan aziyat chekadi, uning sha'nu shavkatidan, odil hukimronligidan faxrlanadi.

Ajdoddan avlodga o'tdi nomingiz
Nasllar qalbida topdi ehtirom
Mashriq Mag'ribni tutdi shoningiz
Quyoshning nuridek, ey zoti ikrom

Amir Temur obrazidagi turli insoniy fazilatlarini zamondoshimizga yetkazish va ko'rsatishda shoir To'ra Mirzo asarlari xarakterlidir. Xususan, uning "To'ronbeka, nurga salom bir!" turkumidagi bir qator she'rlarida Amir Temur siymosi aks etadi. Jumladan, turkumidagi "Buxoroga yayov kiradi Temur" she'rida Amir Temurning ona yurti Buxoroga kirib kelishi voqeasi asosida onaga bo'lgan hurmat namuna qilib ko'rsatiladi.

Onani bilganni olam-da bilar,
Bu shahri azimga ta'zimlar qilar

Jangda egilmagan boshi egilar
Buxoroga yayov kirganda Temur.

Jamol Kamolning "Uyushmoq onidir" she'rida hozirgi Turondagi ijtimoiy hayot misolida mustaqil vatanning kelajagi haqida uylar o'z aksini topadi.

Qalbingizda Mir Alisherning muborak qonidir,
Boshingiz uzra Ulug'bek osmonidir.
Poyingizda mard Temurbekning aziz turonidir
Bizga chin meros buyuklarning adab maydonidir

Parchalamoq paytimas, do‘stlar, uyushmoq onidir.

Normurod Narzullayev she‘rlarining birida o‘zbekiston mustaqilligidan faxrga to‘lib, amir Temurdek ulug‘ inson tug‘ilgan yurtga ehtirom bildiradi.

Amir Temur bobom ruhi madadkor bizga
Olam aro manzur fozil ko‘z qarog‘i bor,
Yakkabog‘im, ona yurtim, ko‘hna Turonim
Ko‘z tegmagay jamoliga, ko‘zmunchog‘im bor.

O.Matjon, S.Salimov, SH.Qurbonlarning Mashrab haqidagi she‘rlarida o‘z davriga sig‘magan isyonkor mutasavvuf shoir ruhiyatidagi olamlar jilvasi tasvirlanadi.

Sharqdagi qomusiy bilim sohiblarining timsol-portretlari tasviriga bag‘ishlangan she‘rlarida ham yuqoridagi yaqin ruhni sezish mumkin. Ulug‘ allomalar tavalludlari, ular qalamiga mansub asarlarning sanalari munosabati bilan yaratilgan she‘rlarda tarix va zamon munosabatlariga ham ahamiyat beriladiki, bu albatta, she‘rlarning ruhiy-psixologik, ijtimoiy qirralarini yorqinlashtirishda durust vosita bo‘la olgan. Bu o‘rinda Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, al-Farg‘oniy kabi allomalar bilan birga. Ismoil Buxoriy, Bahoviddin Naqshband, Ahmad Yassaviy kabi islomiy falsafaning buyuk namoyondalarining ruhiy portretlari tasviriga bag‘ishlangan she‘rlar xususida to‘xtalish mumkin.

YO.Ahmadjonov “Ahmad Yassaviy bilan muloqat” she‘rida sufiy shoir hikmatlari ohanglarini o‘z uslubi darajasida qayta yaratmoqchi bo‘lsa, A.Suyun tarixning osmonlariga hijrat qilgan qalb kechinmalarini tasvirlashni maqsad qilib oladi. Amir Temur Ahmad Yassaviyga obida tiklash ishlarini boshlagan. Lekin uning vafoti tufayli bu ish chala qolib ketdi. Asrlar o‘tdi, afsuski, bu ishni yakuniga yetkazish hech kimning qo‘lidan kelmadi. Shoir mana shu voqeadan ramziy ma’nolar topadi:

...Mana, ul maqbara chaladir hamon,
Chala O‘zbekiston, chala Turkiston.

Bo‘ o‘rinda shoir chala sifatlovchisi orqali yurtdagi, el qalbidagi-ma’naviy kentiklarga ishora qiladi.

Temur, Chingizxon, Boyqaro kabi tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan she‘rlarda ularning davlat arbobi, hukmdor sifatidagi qirrlaridan ko‘ra oddiy shaxs sifatida bosib

o'tgan hayot yo'liga qarayotgan inson kechinmalari tasviriga moyillik yaqqol ko'zga tashlanadi..

E.Shukurning Navoiydan ayrilgan Husayin Boyqaro kechinmalari, Z.Mirzayevaning Chingizxon tazarrulari tasviriga bag'ishlangan she'rlarida tarixiy voqealarga xolis qarash, tarixiy shaxslar qalbidagi qutblar ziddiyati tasviri orqali shaxs va hukmdor qalb dramalarini ko'rsatish ko'zga tashlanayotganganligi alohida ahamiyat berish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosa yasash mumkin.

Lirik "men" bilan tarixiy shaxs timsoli o'rtasidagi bahs, muloqatlar vositasida bugunning bir qator muammolariga badiiy nigoh tashlamoqdaki, bu, albatta, asarning tarixiy va zamonaviy ildizlarini bir-biriga chambarchas bog'lamoqda. Tarixiy shaxs timsoli davr fojealarini aks ettirishning o'ziga xos ramziy-timsoliy vositasiga aylanib bormoqda.

2.1 Milliylik bilan sug'orilgan she'rlarning ahamiyati.

Istiqlof tufayli ma'naviy qadriyatlarga, madaniyatga, jumladan, so'z san'atiga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi. Yangi davr nafaqat adabiyotimiz tarixiga, balki zamonaviy adabiy-badiiy jarayonga ham yangicha g'oyaviy-estetik mezon bilan yondashishni taqozo qildi.

Hozirgi o'zbek she'riyatining ma'naviy miqyosi, badiiy salohiyati sezilarli darajada o'sdi. Shu ma'noda hozirgi o'zbek adabiyotida lirika alohida o'ringa ega. Unda zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg'ularni aks ettirish barobarida, she'riyat jamiyatimizni har bir a'zosa mustaqillikka shukronalik, porloq kelajakka bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kun she'riyatining tabiati va uning zamiridagi falsafiy g'oyani ochib berish, uning yetakchi g'oyaviy-badiiy tamoyillarini aniqlash o'zbek she'riyatining istiqboldagi taraqqiyotini ham oldindan belgilashga imkon beradi, Ma'lumki, ijtimoiy hayotda kechayotgan evrilishlar birinchi navbatda lirikada aks-sado beradi. Bu narsa uning tamoyillarini ham belgilaydi. Bugungi she'riyatda to'rt tamoyil yetakchilik qiladi. Birinchi navbatda, o'zbekistonning mustaqil davlat maqomiga ega bo'lishi bilan milliy uyg'onish g'oyalari balqib turgan she'rlarga alohida e'tibor berish lozim. Bu holni barcha shoirlarning ijodida kuzatish mumkin. Lekin masalaning mohiyatini anglatishda ustoz shoirlar yetakchidir.

Bo'lib o'tgan, erishilgan voqea-hodisani qofiyali tilda qayd qilish bu hali she'riyat emas, uning mohiyatini chuqur falsafiy mushohadalilik bilan inkishof qilish she'riyatdir. Samarqandning mashhur qozisi Abu Tohir Umar Hayyomga: "Ayt-chi, sen odamlar ta'riflagandek dahriymisan?"—degan-da, u shunday javob bergan: (Men Alloh tomonidan insonga ato qilingan sog'lom fikrni ta'qib qiluvchi taqvodorlardan emasman. Ular din va iymonni faqat yaratganga ibodat qilish deb tushunmadilar. Men yaratganga qanday iymon keltiraman, bilasizmi? Masalan, men atirgulga yoki yulduzlarga qarab zavqlanaman. Yagona ollohning yaratuvchanligiga maftun bo'laman, u bunyod qilish dunyoning mukammalligidan, uning eng go'zal mujdasi — odamlardan, ularning bilimga chanqoq miyasi borligidan, muhabbatga chanqoq qalblari, intiluvchan yoki qanotli hissiyotlari borligidan zavqlanib yaratganga iymon keltiraman". Bu ibodatning mohiyatidir. Mustaqillikning ham mana shunday mohiyati ochilishda, ma'lum maqsadga erishiladi, ya'ni shuurida uni anglash hissi, qalbida esa g'ururlanish tuyg'usi tug'iladi. Oqibatda botinida mustaqillikni abadiy saqlab qolish kabi insoniy burch mas'uliyati uyg'onadi. Uning samarasi esa kattadir. O'zbekiston qaxramoni Erkin Vohidovning she'rlari ana shunday qudratga ega. Shoir bugungi kunda o'zbek xalqiga bergan imkoniyatini tarixiy haqiqatning iztirobli tasviridan boshlaydi. Bunda so'zamonlik qilmaydi, tarixning umumlashgan manzarasini chizmaydi. O'zining kechagi kunda kim bo'lganini va qanday holatda yashaganini lo'nda va aniq bayon qiladi. "Vatan umidi" she'rida shunday szadi:

Garchi ismim Erkin,
erki yo'q, bandi kishan bo'ldim,
Ko'zim bog'liq, dilim dog'liq,
Tilim yo'k, besuxan bo'ldim.

Buni o'qigan kishi ko'z oldiga xalqning kechagi kunini keltirar ekan, istiqlolning bergan imkoniyatidan shukur qiladi. Nima uchun shoir o'zining ahvolini bayon qilsa-da, kishi butun xalqining iskanja hayotini ko'z oldiga qeltiradi? Chunki shoir haqiqatni

tasvirlayapti. Haqiqatda esa hamisha tarix va umumlashma mujassamdir. Keyingi misrada tasvir yanada aniqlik tus oladi va iztirob tuyg'usi kuchayadi:

Ko'rib hayratga tushdi
Bu jahon xoli parishonim,
Bamisli ankubut so'rgan –
Chibin, pajmurda tan bo'ldim.

Shoir ohistalik bilan ortiqcha hissiyotlarsiz kechagi kun hayot sahifalarini varaqlay boshlaydi. "Muazzam Sayxunu, Jayxun labida tashna lab qoldim. Kiyintirdim jahonni jismi ursin, bekafan bo'ldim", - deb kechagi kun qay tarzda ekanligini o'kinchli yoritadi. Bir chimdim o'tmish tarixiga to'xtab, erksizlik, hukuqsizlik fojiasiga urg'u beradi:

Chekibdur Bobur Furqat Vatan hajrida afg'onlar, Men ersam,
vah, ne g'urbatkim, Vatanda bevatan bo'ldim.

Ko'rib o'tganimizdek, erksiz kishi, xalq qanchalik afgor
bo'lishini inkor qilib bo'lmaydigan haqiqat bilan asoslagach,
mustaqillikdan mamnun, shukronligini quyidagicha izhor
qiladi:

Shukrkim, keldi istiqlol,
Umidim rost qil, Ollohkim,
Ki shoyad beqafas bulbul
Kabi sohib chaman bo'ldim.

She'rni o'qigan har bir kishi mustaqillikni kadrlashga, uning abadiyligini ta'minlashga intiladi, chunki u istiqlol o'ziga va xalqiga nima berganini, ya'ni mohiyatini anglaydi.

“O'zbekiston bog'lariga qaytib keldi bulbullar” she'ri “Vatan umidi” she'riniig mantiqiy davomidir. Unda ham istiqlol kuylanadi. She'rda aksar shoirlar kabi istiqlolga quruq hamdu sanolar aytmaydi, unda mohiyag ochiladi. Shoir she'ri to'g'ri mohiyatda boshlaydi.

Bugun sahar bulbullarning chah-chahidan uyg'ondmm.

Shohimardon tog'larida bir yayradim, quvondim

Bir-biriga navbat bermay qo‘shiq aytdi bulbullar,
Shukur bo‘lsin, bog‘larimga yana qaytdi bulbullar.

Shoir necha zamonlardan beri o‘lkasi bulbullardan ayru holligini yozar ekan, keyingi misralarda uning sababini ochib beradi.

Tomigacha paxta ekan elda netar bulbullar,
Osmonidan zahar yoqqan yurtida netar bulbullar!
Chamanzorlar shudgor bo‘lsa, bulbul qandoq yayrasin,
Erk kushchasi erk yo‘q joyda qandoq qilib sayrasin, —

deydi kuyinib.

Bulbul timsolida istiqloq amalga oshganini chiroyli ifodalaydi:

Mana bu kun bog‘larimga qaytib keldi bulbullar,
Hur Vatanga hur qo‘shiq aytib keldi bulbullar.

Bu yerda bulbul obrazi o‘z tabiiy manosidan tashqari, ramziy ma’noga ham ega. Mazkur she’rda bulbul — istiqloq, ezgulik, go‘zallikdir. Demak, istiqloq yurtga erkinlik, ezgulik, go‘zallik olib keldi. Shunday shoir:

Men ham endi qalamimni she’rlar uchun charxlayin,
Bu sehri taronani g‘azallarda sharhlayin...

deydi Va bulbulning zavqqa to‘lib sayrashini (demak, istiqloqning mustahkam bo‘lishini istaydi. Chunki mustahkam oyoqqa turgan odamning qulochi keng, parvozi yuksak bo‘ladi), uning yurtiga qaytmas bo‘lib kelganligini chin bo‘lishini orzu qiladi:

Chamanzorda sho‘x sayrasin, zavqqa to‘lsii bulbullar,
Qaytmas bo‘lib vatanimga kelsan bo‘lsin bulbullar.

Ulug‘ iste’dodning voqea-hodisani idrok etishi, mohiyatni bera bilishi ham yuksak bo‘ladi. Abdulla Oripov - shunday ijodkor. U istiqloqda keyin turli mavzularda qator she’rlar yozdi. Ularning aksariyatining zamirida mustaqillik bergan imkon, uning qadriga yetishga da’vat juda ustalik bilan singdirilgan. Ma’lumki, A. Oripov — faylasuf shoir. Uning har misrasi faylasufona mushohada asosiga quriladi. U haqiqatga asoslangan epik ko‘lamda fikrlaydi. Shunday har bir she’riy misrasi otaning nasihatidek kishiga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, hayotdagi o‘rnini belgilaydi.

Emikdoshim, ay, qardoshim, quloq tut menga,

Ushbu ko‘hna, kahkashonda mag‘rur tutgan bosh.

Sen zaminga loyiqdiansan, zamin ham senga,

Senikidir endi bu yer, seliki quyosh.

Qo‘liigda erk, boshda yalov, tilingda surur,

Vatanning bor, bola-bog‘chang, or-nomusing bor.

O‘zbekiston deb atalgan muqaddas hudud,

O‘z Davlating, mamlakating, o‘z Qomusing bor.

("O‘zbek qomusi").

Ko‘rib turibmizki, bu yerda bir og‘iz mustaqillik, istiqlol degan so‘z yo‘q. Lekin bunday imkoniyatni istiqlol berganligini, undan oldin kishiga g‘urur bag‘ishlaydigan, qaddini tik qiladigan — shoir sanab o‘tgan narsalarniig birortasiga ega emasligimiz tagmatindan anglashiladi. Bundan ko‘rinadiki, istiqlolning mohiyatini anglash uchun so‘zga takror-takror murojaat qilish shart emas. "Turkiston bolalariga" she‘rini o‘qir ekanmiz, kishi bir falsafiy haqiqatga imon keltiradi. Bu ham bo‘lsa, katga iste‘dodlariing fikrlashlarida uyg‘unlik borligini. Istiqloldan avvalida o‘zbek qanday qismatga duchorligi haqida A. Oripov shunday yozadi:

O‘t ketsin -u qora kunga- birovlarga qul bo‘ldingiz,

Sharqu G‘arbning o‘rtasida oyoq osti - yo‘l bo‘ldingiz.

Shunga hamohang fikrni biz Erkin Vohidov she‘rlarida ham uchratamiz. Bu yerda sotsialistik dunyo haqida, uning xalqqa keltirgan jafolari haqida haq gapni aytishning o‘zi ham mustaqillikning sharofatidir. Ma‘lumki, istiqloldan oldin tuzumning xalq boshiga solgan kulfatini emas, uni olib kelgan “baxt”ini kuylab, shoirlar o‘zi yozganidan o‘zlari hijolatda edilar. Istiqloldan shukrona aytishda ikki qahramon shoirlarda hamohanglik bor.

Ming-ming shukur, zamon kelib istiqbolga erishdingiz,

Xarob bo‘lgan xonadonni butlamoqqa kirishdingiz.

Shunday bo‘lishiga qaramay, ular bir-biridan keskin farq qiladi. A Oripovda kinoya ohangi kuchli. Masalaning har doim ikki tomoniga qaraydi. Qaraganda ham, haqiqat ko‘zi bilan boqadi. Ongni esa mohiyatga yo‘naltiradi. Shundan she‘rlari doimo mulohaza yuritishga da‘vat etadi.

Turkistonning bog‘larida bulbullari bor, holbuki,

Xor bo'lsa ham, tog'day baland ko'ngillari bor, holbuki.

Agar mushohada qilinsa, "Holbuki" zimmasiga yuklangan shoir g'oyasini anglab olish qiyin kechmaydi.

Insoniy dard bilan yo'G'rilgan she'riyat yoqimli va ta'sirchan bo'ladi. Chunki insonning qalbi kulgidan emas, dard va iztirobdan poklanadi. A Oripovning she'ri shunday. She'rning qahramonga "men" bo'ladimi yoki uchinchi shaxsmi, uning dard va armonlari hamisha umumiylik kasb etadi, ya'ni xalqning dard va armonlarini ifodalaydi. "Sharof Rashidov xotirasiga" she'ri bunga yaqqol misol bo'ladi. Sirdan qaraganda, she'r bir kishining xotirasining, ya'ni boshidan o'tganlarining qaydidek tuyuladi. Lekin ong mushohadaga yo'llantirilsa, bu xotira zaminida butun xalqning bosib o'tgan yo'li, dard va fojiasi o'z mujassamiii topganligi ang-lashiladi. Shoir yozadi:

Uychan ko'zimgizda ne g'am bor edi,
Kelajakmida yo moziyning shoni?
O'zbek-ku bir erkka intizor edi,
Sizni ado qildi ming bir armoni.
Erksevar ellarning orzusini yoqlab,
Xayol dengizida tunlar suzgansiz.
Istiqlol so'zini yurakda saqlab.
Siz qafas ichida gullar uzgansiz.

Ha, shoir aytgandek, sotsialistik dunyo qafas ichidagi hayot edi. Erkin so'zlab, dilidagini erkin izhor qilib bo'lmasdi. Bu yerda "qafas ichida" tashbehi ikki ma'noni anglatadi. Ijtimoiy ma'noda sotsialistik tuzum, falsafiy ma'noda fikr erksizligipi ifodalaydi. YA'ni erk, istiqloq haqida fikr aytish. uni orzu qilish dildagina bo'lishi mumkii. Dil esa fikr, so'z qafasidir. Istiqloq kishini undan ozod qildi. Shoir shu imkoniyatga kulluq qilar ekan, bugun xalqiga qulluqni nazarda tutadi. Chunki Sharof Rashidov xalqning otasi EDI.

Qulluq. Sharof ota, ming bora qulluq,
Boqiy O'zbekiston sizga ham yodgor.
Bugun u istiqloq shavqiga to'liq,
Xizmatigiz eslar takror va takror.
Bu bani haqiqatdir.

Rauf Parfi o'ziga xos shoir, Uning she'rlarida real voqea-hodisalar emas, tuyg'ular yegakmshshk qiladi. Bu tuyg'ular yolg'onchi g'oyadan holi. Rauf Parfi 60-yilning

o‘rtalaridan kechagi tuzumning qandayligini, uning mohiyatini anglagan va istiqlolni orzugini qilmasdan, unga qattiq ishongan. Bunday ishonchga tarix asos bergan. Chunki tarixda mustaqil bo‘lgan davlat, albatta, mustaqil bo‘ladi, bo‘lishi muqarrar!

So‘nmas ruhimizda matonat aslo,

Ajdodlar sharafi abadii yashar.

Mukarram ziyosi, ey, Turkiy Dunyo,

Qo‘llagil, Allohim, qo‘llagim Bashar, -
deb ajdodlar a‘molini yodga soladi. Qur‘onda “Biror qavm o‘z ahvolini (yaxshi tomonga) o‘zgartirmaguncha, Xudo ham o‘z ne‘matini o‘zgartirmay beradi” deyiladi. Ma‘lumki, ajdodlarimiz bu muqaddas oyatga amal qilishib, doimo o‘z ahvollarini o‘zgartirishga intilishgan va o‘zgartirishgai. Yaxshi a‘mollar hamisha ezgulik asosiga quriladi. Ezgulik zamirida esa ziyo nuri yotadi. Qadimda Turkistoining mukarram ziyoligi- shundan.

Istiqloлга erishish xalqni istiqbolga muyassar qilishdir. YA‘ni oldingi hayotidan ruhiy erkin, farovon hayotga erishtirishdir Bunday hayotga esa istiqlopsiz erishish dushvor. Shundan shoir istiqloлга chanqoqlik bilan intiladi va bunga Alloh ham chorlashini ta‘kidlaydi. Chunki payg‘ambarimiz hadislarida “Qashshoqlik kufrga yaqindir... Xudodan qashshoqlik va muhtojlikka tushmaslik uchun panoх tilang” deyiladi. Istiqloл zamirida erkin harakat hom yotadi. Erkin harakatsiz esa kishi hech narsaga erisha olmaydi. Shoirning istiqloлга ruju qo‘yishi, chorlashi shundan:

Yolg‘iz Allohimiz, chorlar Istiqloл,

Muborak siymolar, botirlar chorlar,

Yolgiz panohimiz, chorlar istiqloл,

Jahonga, Insonga muhabbat porlar,

Yolg‘iz Allohimiz, chorlar Istiqloл.

Hayotiy hodisalar mohiyatini har bir ijodkor har xil tushunadi va ifodalaydi. Istiqloл nafaqat hayotiy, ijtimoiy hodisa ham, Chunki qalbi uyg‘oq, fikri tiniq, o‘zligini anglagan, hayotdagi o‘rnini bilgan shaxslar faoliyatining natijasidir. Shoira Qutlibeka - shularning biri. U istiqloлning samarasini odamlar qiyofasida ko‘radi, ya‘ni sifat o‘zgarishida. Shoira “Men sizdan” deb nomlagan she‘rida kechagi odamlarga murojaat qiladi. "Qul edik" biz desa, ma‘qullab bosh silkishadi. "Ozodmiz" desa ham, shunday qilishadi, "Bunyodmiz", "taxtlimiz", "baxtlimiz", "jasorat", "matonat", "xiyonat" kabi bir-biriga teskari so‘zlar bilan murojaat

qilsa ham, birday jismida hech bir o'zgarishsiz, xuddi "temir odam"day bosh silkishadi. Shoira bu holdan lol qolganligini shunday izhor qiladi:

Ba'zida boshingni ushlagim kelar,
Bo'yning bo'g'izlab tashlagim kelar.
Qadoq qo'llarintta termulsam lekin,
Qaro ko'zlaringga termulsam lekin,

O'zimni hayotga boshlagim **kelar...** deydi,
So'ng xulosa yasaydi. "Men Sizdan nima deb gina qilayin?" Shoiraning vatanga mehri nihoyatda ulkan. Vatanning dardi o'zining dardiday, uning shikastligini o'zining jarohati kabi og'riq his qiladi. Vatan but bo'lsa, millat but bo'ladi deb to'g'ri fikrlaydi, Ikkala tushuncha bir-biriga chambarchas bog'liq. Millatning butunligi vatanning ham butunligidir. Aslida, millat but bo'lmasa, vatan ham but bo'lmaydi. Shoira yozadi;

Men uchun "u tomon" ham "bu tomon" yo'q,
Vatan ham butundir, butundir millat.
Jonogir joyingga sanchib turar o'q,
Undagi har yara, jarohat, illat.

Shoira hamma iarsaning butunligi, ya'ni mukammal bo'lishini istaydi. Chunki mukammalikda hamma ezgu omillar mujassamdir:

Itni ham birovga xo'rlatgim kelmas,
Ajrati sevmayman "yirik, maydaga", -

deydi. Millatni bo'laklarga bo'lish bir-biriga yovlashtiradi. Yovlashgan millatning tanazzulga uchrashi muqarrardir. Tarixda bunga misollar ko'p. Eng, hali ohori to'kilmagan misol sotsialistik tuzumning tanazzulidir. Shoira Qutlibeka buni juda yorqin ifodalaydi, biz yuqorida tahlilga tortgan "Vatan ham butun, butundir millat" degan she'rida. Shoira yozadi:

O'ng ko'zni chap ko'zga yovlatib xatlash
Kecha dor, surgunlar tuqqan bu usul.
Millatni bir etmoq- doim balandlash,
Ajrati yurmoqlik - doim tanazzul.

Istiqlol davri adabiyoti kechagi adabiyotdan ijodkor masala mohiyatini, maqsadini, ilgari surmoqchi bo'lgan fikrini zohiran emas, botinan yoritishi bilan ajrab turadi. Ular so'zamonlik qilmaydi, tamoq yirtar darajada qichqirmay (sotsializmning eng otashin, jasoratli, shiddatkor shoirlari kabi), sokinlik bilan nihoyatda samimiy holda ifodalashadi.

Xurshid Davron “Sen umrimning tongisan” degan she’rida mustaqil vatanni shunday kuylaydi:

Men ko‘ksinga boshim qo‘ydim:
Sen chekan g‘am, hasratda kuydim,
Suydim sening Oqdaryoning ham,
Hamda Qoradaryoingni suydim,
Ey, qalbimning onasi, Vatan!

Bu yerda Vatan so‘zi mavhumlik ko‘rinishidan ko‘ra konkretlashtan, insoniylashgan. So‘zdagi ifoda shunday deyishga izin beradi. Malumki, hayotda onaning ko‘ksiga, otaning yelkasiga bosh qo‘yiladi. Demak, Vatan ona qiyofasida kelyapti. Bilamizki, otadan ko‘ra, ona ko‘proq g‘am chekadi va hasrat tortadi. Shoirning Vatanning g‘amidan kuyinganiga kishi ishonadi. Chunki Vatanning boshiga ko‘p savdolar tushgani - bor haqiqat. She’rda Oqdaryo va Qoradaryo ifodasi ham o‘z tabiiy ma’nosidan ko‘ra, salmoqli falsafiy ma’noga ega. Shoir Oqdaryo deganda Vatanning yorug‘, nurafshon kunlarini nazarda tutsa, Qoradaryoda esa boshiga tushgan qora kunlariga ishora qiladi. Shoir Vatanni yaxshiyomonlik kunlari bilan barobar sevadi. Chunki u - ona. Har qanday farzand onaga birday aziz. Shoir uchun Vatan shunday azizdir. Nimaga shundayligiga keyingi misralar kishini ishontiradi.

Usmon Azim Vatanning butun fazilatini, inson hayotida o‘ynagan, o‘ynayajak rolini vatan so‘zining o‘zida, uning botinidagi mazmunda ko‘radi, “Vatanningni o‘stir...” she’rida yozadi:

Bir so‘z bor — yuksak tug‘ —iftixorimda
Tirigimda- nomus, o‘lganimda-sha’n.
Bir so‘z bor — jon uning ixtiyorida,
Xudoday ulug‘ bir so‘z bordir - Vatan,

deb, uni tangriga mengzaydi. Chunki Vatani bor odamning tayanchi bo‘ladi, qudrati bo‘ladi. Shundan uni qadrlashga da’vat etar ekan, so‘z qudrati ila vatan tuyg‘usini ekadi:

O‘stir Vatanningni bog‘ kabi tuygun,
Ishongin-u uni shu aziz yerga —
Xushyor bo‘l, beega qoldirma bir zum

— Farzandingdan boshqa hech kimga berma.

Mumtoz adabiyotda ko‘plab qasidalar yozilgani bilan, haqiqiy qasida sifatida Sakkokiyning Ulug‘bekka bag‘ishlab yozgan qasidasigina tan olinadi va o‘zbek qasidachiligining asoschilardan hisoblanadi. Buning sababi voqelikka va Ulug‘bekning insoniy fazilatlariga to‘g‘ri yondashganligi hamda haqiqiy ekanligiga nisbat berganligidir. Bugungi adabiyot xuddi shu fazilatga ega. Bu hol barcha masalaga bag‘ishlangan she‘rlarda ko‘rinadi. Ayniqsa, vatan mavzusidagi she‘rlarda yorqinroq bo‘ladi. Sirojiddin Sayyid o‘zining "Bag‘ishlov" she‘rida yozadi:

Quyoshu oy kecha-kunduz
Azal posboni bo‘lgan yurt,
Go‘zal CHO‘lponlariyu ham
Go‘zal osmoni bo‘lgan yurt,
Sen, ey, sha‘ni balandu ham
Baland ayvoni bo‘lgan yurt,
Tikilsam gar, sevinchdandir,
Ko‘zimdan ketmagay namlar.

Ta‘rifning ayni haqiqat ekanligiga, shoir tuyg‘ulariniig samimiyligiga hech qanday shubha yo‘q.

Shayxzoda o‘zining "Toshkentnoma" dostonida

Shaharlar boqiydir,
umr o‘tkinchi,
Daryolar sobitdir,
suvlar ko‘chkinchi

kabi purhikmat, aforizmga aylanib ketgan, falsafiy haqiqatni ifodalagan edi. Sirojiddin Sayyid ham Vatanni “bo‘ston” deb to‘g‘ri tashbeh ishlatadi. Chunki har komil inson “o‘zlikni jamlab”, Vatan binosiga bir g‘isht (G‘. G‘ulom) ko‘yadi. Demak, yangilanishiga, yashnashiga hissa qo‘shadi. Shun- day bo‘lgach, Vatanning manguligi tabiiydir. Shoir “Vatan, sen mangu bo‘stonsan, bayotim - shabnamlar. Salomat bo‘l, chekan jabru g‘amu og‘riqlaring yetkay”, - deya yurtiga ezgu tilak bildiradi.

2.2 Poetik g'oya va lirik qahramon talqini

Bugungi o'zbek she'riyati o'z taraqqiyotining muhim hayotiy hodisalarni tasvirlash va dolzarb muammolarni aks ettirishdan ko'ngil manzaralarini chizish va ruhiy holatlarni moddiylashtirish bosqichiga o'sib o'tdi. To'g'ri, bugun ham dolzarb kundalik hodisalariga bag'ishlangan, muhim siyosiy voqealar yoki odam ko'nglining ijtimoiy mohiyati ifodalangan tizimlar yaratilayotir. Lekin aksar hollarda chin she'riyat ko'ngil holatini manzaralashtirish, sezimlar chigalligi va iztiroblar rangini chizish, ranglarning tovushini berishga tutungan. O'zbek she'riyatida Rauf Parfi boshlab bergan bu tasvir yo'nalishi, ifoda yo'sini bugungi kunda asosiy yo'nalishga aylandi deyish mumkin.

Olamni yangicha his etish samarasi bo'lmish hozirgi o'zbek she'riyatida turg'unlik emas, doimiy o'zgarishlar an'anaga aylanadi. YA'ni o'zgarishlarning tinimsizligiga an'anasi paydo bo'ldi, birovni takrorlamaslikning takrorlanishi qaror topdi va bugunga kelib har bitta chinakam shoir nafaqat birovni, hatto o'zini ham qaytarmaslikka harakat qilayotir. Bu holat bugungi she'riyatning etakchi belgisiga aylandi. She'riyatimizning taniqli shoirlaridan biri Faxriyorning ijodi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Tiriklik savdoga qo'yilgan, umr bozorga chiqarilgan, eng muqaddas tuyg'ulardan oddiy ashyolargacha olib sotilayotgan bir sharoitda olamni atrofga emas, o'z shaxsiga qaratadigan, o'ziga bo'lgandayam sirtiga emas, ko'krak qafasini yorib, ichkariga kirishga undaydigan she'riyatga kuchli ehtiyoj seziladi. Jamiyat a'zolarining asl odamiy sezimlardan ayrilib qolmagan qismi ana shu ehtiyojmandlarni tashkil etadi. Bundaylar unchalik ko'p bo'lmaydi. Ammo bu ehtiyojmandlar jamoasining borligi jamiyatning imkoniyatini bildirsa, bunday qatlamning ko'payib borayotganligi ijtimoiy sog'lomlashuvdan iboratdir.

Asl she'r odamning ichida bo'layotgan talotumlar, savdolar, omonsiz janglarni ko'rsatish orqali uning ko'nglini tuyg'usizlik zangidan tozalaydi. Yurakka toza epkinni bulutga, bulutni yomg'irga aylantiradi. Va yurak deb atalmish cheksiz hamda himoyasizligi tufayli kirlanish, yaralanish oson bo'lgan mamlakatni muhabbat yomg'irlari bilan yuvmoqqa, undagi manfaat kirlarini, loqaydlik muzlarini sevgi otashi bilan eritmoqqa tutinadi. Lekin samara hamisha ham kutilganday bo'lmaydi. Ma'lumki, baxt o'tkinchi, o'ksizlik doimiydir:

Yurak ingrar chorasiz
Chatnab yotar muzligi,
Na adoq bor, na xulosa
Azob uzluksizligi.

Bugungi o'zbek she'riyatining an'anaviy tasvir uslubidan farq qiluvchi yangicha obrazlar, kutilmagan ramziy ifodalar, qochirimlar tazod va paradokslar, eng muhimi, betakror serohang, serma'no ifodalar bilan kitobxonni o'ylantiradi. Fikrning ixcham, lo'nda shaklda

ifodalanishi, zamonamiz va zamondoshimiz ruhiy olamini yangi jihatlardan poetik tadqiq etish – insonning bezovta ruhini, dardlarini tasvirlash borasida erishgan yutuqlari o‘zbek she’riyati yangi poetik sarhadlarni kashf etayotganligidan dalolatdir.

Xususan, iste’dodli shoir Bahrom Ro‘zimuhammad yaratgan ana shunday poetik kashfiyotlar an’anaviy shakllarga mos tushmaydi, gaplarning grammatik jihatdan parallel joylashtirilishi, ritorik tuzilish murojaat, xitob ohanglarini ifodalashga yo‘naltirilganligi bilan yangicha.

Arvohning dastxatini ko‘rdim
Qoqilib yiqildim bir bo‘lak tushga
Osmon
Qorachig‘i sug‘urib olingan
ko‘z kabi
Boyo‘g‘li uvillar edi
Huvillab qolgan bog‘da
Soyalar
Hech kim taklif qilmasa-da
raqsga tushardi
Yana nima deyishim mumkin
dunyo keng ekan.

Mazkur she’rda Boyo‘g‘li uvillayotgan kimsasiz bog‘, qorachig‘i sug‘urib olingan osmon, raqsga tushayotgan soyalar go‘yo tush ko‘rayotgan odam nigohlari orqali kuzatiladi. Tush esa o‘limga qiyoslanadi. Shu bois, shoir tasvirlayotgan manzara jonsiz, harakatsiz, ma’nisizday tuyuladi. Ammo insonning ko‘zlariga yashiringan olam bilan aql va idrokka singishgan dunyo manzaralari ayni olamning turfa ko‘rinishlaridir. Shoir dunyoning kengligini ta’kidlar ekan, uning rangin ekanligiga ham diqqatni qaratadi.

Jiyda guli
meni mast qildi
jin chaldi jiydaning ostida
Sap-sariq chiroqmikan bu gullar
yulduz shu’lasidan quvvat olarmi
nuqul qoshiqchilar jarangi
Eng xavflisi shundaki
bolari nektar yig‘moq uchunmas
sizni chaqish uchun keladi.

Jiyda gulining iforidan mast holdagi lirik qahramon go‘zallik o‘g‘risi sifatida tasvirlanadi. Tabiiy go‘zallikning sharbatini simiruvchi bolarilar bu «o‘g‘rini» chaqish uchun kelayotganday. Manzara an‘naviy poetik tasvirga sira o‘xshamaydi. Shoir aytmoqchi bo‘lgan poetik fikr ham yashirin. Tasvirlanayotgan manzaradan kitobxon o‘z zehni va tuyg‘ulari quvvatiga ko‘ra ma‘no anglaydi: go‘zallik qarshisida es-hushidan ayrilgan lirik qahramonni jin chalishi natijasida u jiyda gullarini sariq chiroqlarga, jiyda guliga parvona bolarining harakatlarini qoshiqchalar jarangiga o‘xshatadi. Ayni shu nuqtada poetik ma‘no yuzaga chiqadi: bizni o‘rab turgan olam va uning go‘zalliklaridan hayratlanishni, zavqlanishni bilmagan inson hayoti ro‘yoga o‘xshaydi. Bunday odamlar faqat yeyish-ichish g‘ami bilan umr o‘tkazadilar, ularni bolarining mashaqqatli mehnati natijasi emas, o‘z jonining, huzr-halovatining bexavotirligi qiziqtiradi. Bunday odamlar bolaridan ham maydaroq, bolarichalik foyda keltirmaydigan, o‘z nafsining qullaridir. She‘rda manzara ichiga qarab harakatlanuvchi spiral ko‘rinishli poetik tafakkur bu dunyoning rang-barang manzaralarga boyligini, har bir manzara o‘z ichki ma‘nolariga ega ekanligini ifoda qiladi. Shoir she‘rlaridagi har bir so‘z, har bir satr muayyan bir obrazli ifodaga, ramziy ma‘noga va ichki ohangga ega ekanligini quyidagi she‘r orqali ham kuzatish mumkin:

Uzoq taraddudlanib turdi Qo‘rquv
xotirjamlikka o‘xshab bamaylixotir
tahlikaga chap berib turdi
Qo‘lini soyabon qilib qoshiga
Vahima yashayotgan uyga qaradi
Qaradi muzaffar navkar singari
So‘ng esa
so‘ng shunday alpozga tushdiki
qaltiramagan joyi qolmadi.

Qo‘rquv obrazi orqali shoir diqqatimizni uning havfli ma‘naviy illat ekaniga qaratadi. Kezi kelganda qo‘rqoq odamlar xotirjam, uddaburon, ayyor va o‘ta ehtiyotkordirlar. Ammo mardlik talab qilinganda ular o‘z-o‘zini fosh etadi. Ana shu ma‘nolar qo‘rquv obrazi orqali tasvirlanayotgan manzara-holat zamiridan anglashiladi. Ko‘rinib turibdiki, bunday she‘rlarning chuqur ma‘nolarini ilg‘ab olish uchun ikki muhim omilni teran idrok etish talab qilinadi: birinchisi, Navoiy, Bedil singari san‘atkor ijodkorlarning merosidan, an‘nalaridan; ikkinchisi, umumevropa badiiy tafakkurining nafis namunalaridan boxabarlik bugungi o‘zbek she‘riyatida Bahrom Ro‘zimuhammad kabi shoirlar ijodida ana shu ikki muhim omil o‘zaro tutashib yangi badiiy kashfiyotlar yaratilishiga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Barmoq vaznida yozilgan she‘rlardan farq qiluvchi hijo, turoq va qofiyadan uzoq, xalq jonli tiliga yaqin bunday sarbast she‘rlar ko‘proq

nasrga o'xshab ketsada, badiiy poetik tili, serma'noliligi, ohangi, so'z qo'llashdagi shoir mahorati ila she'riyatning ochilmagan sarhadlariga kitobxonni yetaklaydi, o'ylatadi, fikrlatadi.

Ilonning o'zidan emas
shaklidan qo'rqaman
shamoyili sovuq men uchun
mabodo mushukka o'xshaganida bormi
silab-siypalardim ilonni...

Hayotda muayyan shakl-shamoyilga balki o'z nuqtai-nazariga egalik kimlarnidir cho'chitar, haq so'zni dangal aytuvchilardan ko'pchilik hadiksirar. Agar bunday odamlar daf'atan mo'min-qobil yo muloyim kishiga aylanib qolsalar, hamma «yoqtiradigan» qiyofaga kirishi mumkin. Xo'sh, mo'min-qobillar nima uchun barchaga yoqadi? Shoir «mo'min-qobillik» ortiga yashiringan ma'naviy illatlar haqida o'ylatayotir.

«Soyalari suhbat» nomli she'rida shoir rang obraz va rang ramzdan mahorat bilan foydalangan:

Menga nima bo'ldi uchta soyam bor
Ikkitasi rangsiz bittasi sariq
Hiringlab kuladi bir soyam
Chunki yo'qotib qo'ydim bolaligimni
Topganim jiyda gulining ifori
U ham boshqa boqqa o'tib ketgandi...

Shoir inson umrining pallalarini soyalarga o'xshatadi. Ikkitasi rangsiz soya – bolalik va yigitlik davrini ma'nisiz o'tkazgan inson umrining soyalari. Sariq rangli soya – qarilik chog'i o'z umrini sarhisob etib, o'z ustidan kulayotgan, ya'ni bo'm-bo'sh hayoti ustidan hukm chiqargan insonning umumlashma obrazi. U hayotda yuksak yo ezgu maqsad uchun yashamagan, ammo qachondir go'zallikni sevgan. Afsuski, bu go'zallik ham «boshqa boqqa o'tib ketgandi».

Xulosa qilib aytganda, bugungi o'zbek she'riyatiga xos rang-ramz, obraz-ramz orqali ifoda qilinayotgan ma'nolar, obrazli ifodalar shoirlarning o'ziga xos uslubi va mahorati orqali yangi poetik kashfiyotlar yaratilishiga zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Keyingi yillarda yaratilgan o'zbek she'riyati namunalarini ko'zdan kechirar ekanmiz, jahon adabiyotiga xos ilg'or ijodiy an'analarni milliy ruhiyat ranglariga yo'g'irib ifodalash an'analari ham, yangicha talqin uslubi va yangi shakliy izlanishlarni; an'anaviy uslubning xilma-xil ifoda ko'rinishlarini ham kuzatish imkoniga ega bo'lamiz.

Bugungi o'zbek she'riyati markazida turgan lirik qahramon zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg'ularni XXI asr kishisining tafakkur tarzi, ruhiy evrilishlari fonida ifoda etmoqda. Agar istiqlolgacha bo'lgan davr o'zbek she'riyatida lirik qahramon tuyg'ulari ifodasi

orqali uning qalbini anglashga, poetik tadqiq-u tahlil qilishga intilish ko‘zga tashlansa, keyingi yillarda yaratilayotgan lirika namunalari biz ko‘nikkan shakl va uslub chegaralaridan «qalqib chiqib», e‘tiborimizni turfa manzaralar tasviriga qaratmoqda. Lirik qahramon nigohi qadalgan manzara qatiga yashiringan ma‘nolarni esa kitobxon o‘z tafakkur tuyg‘ulari, badiiy-estetik idroki va fahmi orqali anglab olishi mumkin. Bu xususiyat she‘riyatning sirli-sehrli va rang-barang inson olamini shoir yoki lirik qahramon qanday anglayotganligini tasvirlashdan o‘sha betakror insonlarning turfa idroklari-yu his-tuyg‘ulariga, ko‘ngillariga o‘zlari yo‘l topishlariga undash, **insonni anglashga intilishdan uning qalbini o‘ziga anglatish tomon qadam tashlanganligidan dalolat beradi.** Hozirgi o‘zbek she‘riyatiga xos **bu tendensiya** qanday ijodiy-estetik tamoyillarda o‘z aksini topmoqda?

1. O‘zbek shoirlarining o‘zbek klassik she‘riyati va xalq og‘zaki ijodiga xos an‘analarni davom ettirib, poetik nutq xususiyatlaridan mohirona foydalanib, ijtimoiy-falsafiy ma‘no tashuvchi badiiy umumlashmalarni yaratishga intilishlarida ko‘rinadi:

«Xalqim deymen, ruhim tushib,
Kimlar ko‘ngling to‘q qildilar
Ming so‘qiring til topishib,
Bir uyg‘og‘ing yo‘q qildilar!»¹

Shoira H.Xudoyberdiyeva qalamiga mansub ushbu she‘rda muhim ijtimoiy-ma‘naviy illatga kitobxon diqqati tortilgan: qalb ko‘zlari ochilmagan, ma‘naviy «ko‘rlar» birlashib, el-yurt dardida bedor chinakam fidoyilarni yo‘q qilishga chog‘lanishlarining o‘zi katta fojea! Zero, yaratuvchi, fidoyi Inson darajasini zabt etishi uchun avvalo inson o‘zligini yuksaltirmog‘i, xalq dardi bilan yonib yashaydigan, uyg‘oq qalbli bo‘lishi kerakki, bunga «qalb ko‘zi ochilgan» buyuk insonlargina erisha olganlar. Afsuski, bunday insonlar barmoq bilan sanarli. Iste‘dodsiz, yaratuvchanlik hissidan yiroq, yurt manfaatlaridan o‘z xohish-istaklari-yu manfaatlarini ustun qo‘yuvchi ma‘naviy ojiz, qalb ko‘zlari «ko‘r» kimsalar esa ko‘pchilikni tashkil etadi. Shoira ana shu hayot haqiqatiga ishora qilib, «Ming so‘qiring til topishib, Bir uyg‘og‘ing yo‘q qildilar», - deya salmoqli poetik fikrni qisqa, ammo yorqin ifoda qilish mahoratini namoyish qilmoqda.

Poetik nutqning o‘ziga xos xususiyati – lakonizmdan foydalanib, e‘tiborimizni liro-falsafiy fikr yo mushohada talab holatlarga, manzaralarga qaratish xususiyati shoira Zulfiya Mo‘minovanning quyidagi she‘rida ham ko‘zga tashlanadi:

Ostonamda yig‘layotir kuz,
Ostonamda gangiydi shamol.
Ostonamdan olislagan iz –
Ostonamda og‘ir bir savol.

¹ Худойбердиева Х. Сайланма. –Т.: Шарқ³. 2001. 398-бет.

Men barini tushundim nogoh,
Xazonlarni gazga bosib jim.
Ostonamda men qilgan gunoh -
Yolvorishni bilmaganligim.¹

«Ostona» soʻzining takror va takror qoʻllanishi yangi maʼno tovlanishlariga ishora: yolgʻizlikda kechirilgan umrning soʻnggi «ostonasi» - kuz yigʻlamoqda. Nega? Nima uchun? Shamol ham umrning «soʻnggi ostonasi»gacha bu yolgʻizlik, tark etilganlikning maʼnosini anglamay, umrini boshqa, begona eshiklar ostonasida oʻtkazgan inson hayotining adogʻi – maʼnisiz hayotning «soʻnggi ostonasi» oldida inson qismatidan gangigan holatda...» Hatto shamolning ham «uloqtirib», «uchirib», «koʻtarib, tashlashga» bu ostonadan (yaʼni makondan, uydan) hech nima topolmay, hayron holatda uni tark etayotganligi hayajonli va taʼsirchan tarzda tasvirlangan. Bu ostonadan bosh olib ketgan, olislagan «iz» qoldirgan «ogʻir savol» ham hanuz javobsiz... Yolgʻizlikda umr kechirgan «lirik qahramon»ning xazonrezgi pallasidagi umr daraxtining qovjiragan xazonlarini yuziga bosib, oʻz gunohlarining maʼno mohiyatini tushungan holati quyidagicha tasvirlanadi:

«Ostonamda men qilgan gunoh - Yolvorishni bilmaganligim» - deydi. Xoʻsh, yalinib-yolvorish nimaligini bilmagan lirik qahramonning «gunohi» nimada? Axir yetuk shaxslar hamisha magʻrur boʻlishgan, yolvorish binobarin, bosh eguvchanlik ular uchun yot xususiyat boʻlgan. Bobur Mirzo, Mirzo Ulugʻbek shaxsiyatiga xos yetuklik alomatlar ham ayni shu jihatdan izohlanadi-ku?

Gap shundaki, sheʼrda shoira kibrga berilish, «man-manlik» natijasida oʻzi va oʻzgalar dardidan, tuygʻularidan, samimiyatdan yiroqlashgan inson qismatini lakonistik syujet yaratish orqali taʼsirchan manzaralarda tasvirlamoqda. «Ostona» - makon maʼnosida xilma-xil maʼnolarni ifoda qilgan. Ostona – uy, xonadon ostonasi maʼnosida; Ostona - (umrning soʻnggi pallasi maʼnosida) – bu oʻtkinchi dunyoning oxiri, haqiqiy dunyoga oʻtish ostonasi maʼnosida; ostona - (koʻngil ostonasi nazarda tutilgan) qahramonning boʻm-boʻsh koʻnglining ostonasi maʼnosida; Ostonom – men muqaddas deb bilgan eʼtiqod va aqidalar manzili, ostonasi maʼnosida. Lirik qahramon oʻzini «buyuk» deb hisoblagan shu bois «buyuklar» hech kimga bosh egmaydi, hech qachon yalinmaydi va yolvormaydi, – degan aqidaga ishonib yashagan.

Ammo, «buyuklik» va «yagonalik» faqat Ollohga xos sifatki, bandasining gunohi buni chuqur anglab etmaganligidadir. Mazkur badiiy-falsafiy umumlashmalarni shoira «ostona» soʻzining serqatlam maʼno tovlanishlarini badiiy ifoda vositalariga mohirona «payvandlash» orqali badiiy kashf etgan.

¹ Мўминова З. Ёнаётган аёл. –Т.: Ёзувчи, 1992. 89-бет.

2. Z.Mo‘minova lirikasida «oq ilon», «yomon tush», kabi xalq og‘zaki ijodiga xos ramzlar; «tushlarning oqishi», «aqlu xush oqig‘i» kabi mubolag‘ali tasvirlar, poetik ko‘chimlar, jarangli iboralar, tasviriy vositalardan o‘z o‘rnida foydalanish san‘ati namunalarini ko‘plab uchratamiz. Bu xususiyatlar shoira she‘rlaridan anglashiluvchi poetik tafakkur tarzining serohangliligi, ma‘no tovlanishlari, obrazlilik va poetik nutq imkoniyatlaridan unumli foydalanish natijasi ekanligi aniq. **Bu hozirgi o‘zbek she‘riyatiga xos estetik tamoyildir.**

Hozirgi o‘zbek she‘riyatida A.Oripov, X.Xudoyberdiyeva, Usmon Azim, Z.Mo‘minova, Rauf Parfi, Qutlibeka, Sirojiddin Sayyid, A.Qutbiddin, Faxriyor kabi shoir va shoirlar ijodida **poetik nutq shakllaridan unumli foydalanib, o‘z ichki dunyosini o‘z tili – «men» orqali batafsil va hayajonli tarzda ochib berish tendensiyasi** ko‘zga tashlanayotir. Bunday monolog she‘rlarda har bir ijodkorning inson, olam, jamiyat, imon-e‘tiqod borasidagi o‘ziga xos qarashlari badiiy aksini topgan. Mana bir misol:

Dunyo kambag‘alni kamsitib, g‘ajib
Tag‘in boyitarkan boyroqlarini.
Ruhim olib qo‘yar boshimdan tojni
Ruhim ko‘taradi bayroqlarini!
Qaydagi etimni etim tishlaydi,
Dunyo qantarmasa kaj itlarini.
Ruhim yuragimga qattiq mushtlaydi,
Ruhim kiya boshlar sovutlarini¹.

Shoira bunday murojaat monolog orqali dunyoda adolatsizlik hukm surar ekan, «men» qalbm da‘vatiga ko‘ra kurashga otlanaveraman, - degan salmoqli badiiy umumlashmani ifoda etmoqda. Shoir Usmon Azimov esa qator she‘rlarida **tasviriy monolog vositasida o‘z ruhiyatini taftish etib, o‘z dunyosidagi iztiroblar mohiyatini ta‘sirchan manzaralar tasviri orqali tasvirlash tendensiyasini namoyon etmoqda.** Mana bir misol:

Qo‘llarimni qiydi zanjir. Ezg‘iladi boshimni –
Tog‘day qullik yerga egdi - bo‘ynimdan torta-torta
Men haq bildim bu dunyoning katta-kichik toshini,
Men toshlarga yuzim tutdim yoshimni arta-arta.
Bo‘g‘izlarim achishdi. Ha, o‘pkalarim achishdi.
O‘pkam to‘ldi odamlarning «Oh»lari to‘la tunga.
«Havo» dedim, - tomog‘imga qaro qurum yopishdi,
Necha yilki, men havosiz yashayapman butunlay.
Sovuq qotdim. Izg‘irinda chirsilladi so‘nganim,

¹ X.Xudoyberdiyeva. Сайланма. –Т.: Шарқ³. 2000. 440-бет.

Tomirlarim – ayozlarda muzlagan qiyoyq hanuz.
Olov so‘rab, gulxanlarni bo‘zlab kezdi yuragim,
Yong‘inlardan yonib chiqib, quchoqladi meni muz.
Men – suvsadim. Men - qahradim. Men – xas bo‘ldim.
Quridim...

Lirik qahramonning erksizlikdagi iztirobli holati, erk suviga tashna daraxt kabi qaqrab qurishi nihoyatda ta’sirchan o‘xshatishlar, jonlantirish, mubolag‘a kabi tasviriy vositalar, o‘z holatini sharhlash usuli orqali ifodalangan. «Men»ning fojiasi erksizligi - «tog‘day qullik» ayni chog‘da tosh yuraklarga yuz tutib, dunyoning «katta-kichik toshlarini» haq deb bilganida, ularga ishonch ko‘zi bilan qarab, «toshlarga yuz burganida». Bu o‘rinda shoir umumlashma obraz «toshlar» vositasida qalbi ezgu tilak va istaklardan yiroq, hissiz, diydasi «tosh» odamlarni nazarda tutayotir. Bunday odamlar El dardiga dardkash-u, tilaklariga tilakdosh bo‘la olmasligini kech anglagan lirik qahramon odamlarning «oh»lari to‘la tunda elu-yurt iztiroblariga hamohang alamli ko‘z yoshlarini to‘kmoqda...

So‘z san‘atining janrlarida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar ko‘plab uchraydi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Axmad Yassaviy asarlarida ham lavhalar, tabiat tasvirlari, ilgari surilgan falsafiy, ahloqiy-didaktik fikrlar rang ramzlari orqali berilganligi ma’lum. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida majoziy ranglar timsollarga ko‘chirilib komillik bosqichlarini zabt etayotgan inson dunyosini tasvirlashga xizmat qilganki, ana shu xususiyatlar Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida o‘zgacha tovlanishlar va ma’nolar kasb etmoqda.

Olamni va undagi turfa holatlar, hayot murakkabliklarini qalbida kechirayotgan inson dunyosi ham kamalakrang. Butun hayot zalvorini o‘z tafakkuriga sig‘dirishga urinayotgan zamondoshimizning kechinmalari, o‘y-hayollari ham chegara bilmas darajada rang-barang. Ana shu olam va inson dunyosidagi mushtaraklikni badiiy so‘z poetik ranglar orqali ifodalash imkonini beradiki, bunday ramziylashtirish shoirga qisqa ohanglar va sanoqli ranglarda inson timsolini jonlantirishga qodir mo‘yqalam tutqazadi. Abdulla Oripovning «Bilol xabash» she’rida qora rang obrazning ruhiyatini yoritib turgan e’tiqod nuriga uyg‘unlashib oqlikka ko‘milsa, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim she’rlarida uchrovchi oq rang beg‘uborlik, samimiylik, yorug‘lik, ezgulik ma’nolarini ifoda etadi. Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida oq rang bilan yondosh sariq va qizil ranglar uchraydi. Shoira judolik, ayriliq, tushkunlik, aldanish holatlarini sariq ranglar vositasida jonlantirsa, qizil rang orqali yovuzlik, fojiaviylik, zo‘ravonlik, istibdod ramzlarini yaratgan. Inson qadri bukilgan, erki toptalgan mustamlakachilik davrida hatto nafas ham qizil, kishan ham qizil, tikan ham qizil. **Shoirilar favqulodda yaratilgan ifodalar orqali ramziy obrazlarni kitobxon ko‘z o‘ngida jonlantirishga erishib, poetik g‘oyani**

to‘laqonli anglatishga muvaffaq bo‘layotirlarki, bu xususiyat hozirgi o‘zbek she‘riyatiga xos tendensiya sifatida tadqiq etilishi lozim. Poklik, nurday bokiralik, illatlardan forig‘lik, imon-e‘tiqodlilik Eshqobil Shukurning «Yashil o‘lim» she‘rida asosiy badiiy unsur-ramziy obraz orqali ifoda etilgan. Bu xususiyatlar o‘zbek she‘riyatida rang ramzlar vositasida inson dunyosini, olam xossalarini o‘ziga xos tarzda anglash va tasvirlash usuli yuzaga kelganligini ko‘rsatadi.

Bir qator o‘zbek shoirlari qatorida iste‘dodli shoir Bahrom Ro‘zimuhammad ijodida ham ranglarning ramziy qo‘llanish usuli o‘ziga xos poetik timsollar yaratishga xizmat qilganligini kuzatish mumkin.

Inson tabiatga talpinib yashaydi. Uning bag‘rida o‘zini qushday engil, dardlaridan forig‘ his etadi. Tabiat go‘zalliklariga boqib bahra oladi va o‘zini uning bir bo‘lagi deb biladi. Ammo ona tabiatni asrash insoniyatni kulfatlardan asrash ekanini hamisha ham yodda saqlamaydi.

Vaqtiki yer tars yorilganida
Havoda uchib millionlab yer bo‘laklari
Mumdek erib bitsa
Tutunga aylansa yer
Vaqtiki sirg‘alsa yulduzlar
Uch quyosh charx ura ko‘kda
Va uch quyoshga juft bo‘lsa uch oy
Tun va kunduz qorishsa bir – biriga
Vaqtiki borliq o‘z ma‘nosini yo‘qotsa butkul...

Tasavvur qiling, sarhadsiz falak bo‘m-bo‘sh bo‘lib qolsa, tutunga aylansa er? Shoir beparvolik, bemaqsad yashash, gunohlardan yuraklar ezilmas darajaga kelsa, insonlar borliqni talon-taroj qilib bo‘lishsa, tugatishsa, hatto, yanchib bir-birovlarin, hayhot, bu holga chidash berolmay, yer tars yorilsa, mumday erib bitsa borliq!- deya xitob qilmoqda.

Yorug‘lik o‘rnini zulmat-u qorong‘ulik egallasa, borliq ham o‘z ma‘nosini butkul yo‘qotsa, demak kurramiz ham koinotda chilparchin bo‘ladi! Shoir ana shu falokatni ko‘z oldimizda quyuq qora ranglar orqali jonlantiradi, insonlar qalbining rangsizligi, bo‘shliqqa aylanib qolganligi olamning bo‘m-bo‘shligi bilan uyg‘un tasvirlanadi.

Ana o‘rik guli
xo‘rozqandga o‘xshab muzladi
yashillik sovqotib turibdi
dir-dir
sochingizni o‘ynaydi shamol
shundan boshqa ishi yo‘q kabi

jiddiy...

Go‘zallikning muzlashi, yashillikning dir-dir sovqatib turishi ezgulikning omonatligidan darak bermaydimi? Farzandlarimiz qalbida nish urishi kerak bo‘lgan insoniy sifatlar, latif xulqlar kurtak yozayotgan daraxt yaproqlari kabi sovqotib tursa, bu umrimizning, borlig‘imizning omonatligidan, hayotning g‘animatligidan darak bermaydimi?

Demak, o‘zbek she‘riyatida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlarni shartli ravishda quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Insoniy sevgi-muhabbat mavzuidagi ramzlar.
2. Insoniy fazilatlarni ulug‘lashga, mehr-oqibat, ezgulikni qadrlashga undash mavzuidagi ramzlar.
3. Ijtimoiy – siyosiy mavzudagi ramzlar.

Bulardan tashqari, hozirgi o‘zbek she‘riyatida «rang-ramz», «rang-obraz», «ibora-obraz», maqollar, hikmatli so‘zlar orqali ramzlar yaratish xususiyatlari ko‘zga tashlanmoqda. Bu xususiyat inson bilan tabiatning aloqadorligi, ayni paytda, ruhiyatimizning ona tabiatga uyg‘unligi hosilasidir. **Ranglarni ramzlashtirish hozirgi o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos an‘ana tarzida davom etmoqda, badiiy-estetik tamoyil sifatida yashamoqda.**

Hozirgi adabiy jarayon xususiyatlarini tadqiq etgan o‘zbek adabiyotshunoslari va tanqidchilari mustaqillik yillarida yuz bergan muhim jihatni ta‘kidlab, badiiy ijodga yangicha munosabatning qaror topayotganligi; ijodkorga yaratuvchi shaxs, san‘atkor sifatida qaralib, badiiy asarlarga birinchi galda badiiyat talablari nuqtai-nazaridan baho berishga harakat qilinayotgani, «g‘oyaviylik»ni emas, ijodkorning badiiy tafakkur tarzini o‘rganish etakchi tamoyilga aylanayotganini ijobiy hodisa sifatida ta‘kidlayotganliklari quvonarli holdir.¹

Ijodkor badiiy tafakkuri Olloh in‘om etgan ilohiy mo‘jiza-iste‘dod nuriga yo‘g‘rilgan bo‘lsa, qanchadan-qancha milliy boyliklarni bunyod etadi. Bu haqda so‘z yuritgan I. G‘afurov: «Iste‘dod - milliy boylik. U necha yuzlab, minglab boyliklarni bunyod etadi dunyoga beradi», - deganida tamomila haq edi. Aynan ijodkor badiiy tafakkurining ilohiy va dunyoviy mazmunlari uyg‘unligidan yuzaga keluvchi o‘ziga xos uslubda ham shu ikki jihat ko‘zga tashlanadi: iste‘dod – mahoratni yuzaga chiqaruvchi omil bo‘lsa, uslub-ijodkor tafakkurining badiiy til orqali dunyoviy ma‘no va mazmun kasb etishidir.

Demak ijodkor shaxsida ana shu ikki jihat uyg‘unlashib, o‘ziga xos uslubning namoyon bo‘lishida asos vazifasini o‘taydi. Ayni chog‘da, ijodkor uslubi va badiiy mahorati vositasida inson dunyosining sirli, sehrli qatlamlari, tuyg‘ularining shiddati, his-hayajonlarinig ma‘no tovlanishlari, tug‘yonlarinig zarbi ifoda qilinadi, tasvirlanadi. Kitobxon yana o‘sha ilohiy

¹ qarang: У.Норматов. Умидбахш тамойиллар. –Т.: Маънавият. 2000.
Н.Худойбергенов. Мехру мухаббат йилларида. –Т.: Ёзувчи. 2003.

mo'jiza-iste'dod qudrati ila o'zga insonlar ruhiyatini his qiladi, ular dunyosiga kirib boradi, ularni xuddi hayotdagidek jonli insonlar kabi tasavvur etadi va tushunadi, hamdardga aylanadi. Badiiy obrazlar qiyofasida har safar obrazlarning yangi, sirli va sehrliligi, betakror ilohiy dunyosi namoyon bo'ladi. Yaratilayotgan ana shu hayotiy qahramonlarni zamon va istiqloq davri adabiyoti talablari, badiiyat mezonini asosida har taraflama chuqur o'rganish hozirgi adabiy jarayonning dolzarb muammolaridan biridir.

Hozirgi o'zbek she'riyatiga xos tamoyillaridan yana biriga e'tiborni qaratib, f.f.d., professor Hakimjon Karimov quyidagilarni alohida ta'kidlagan edi: «Totalitar tuzum va uning mafkurasi milliy respublikalar xalqlarini tarixidan, madaniyati ildizlaridan mahrum etibgina qolmay, diniy an'analari va urf-odatlarini ham payhon qilib tashladi. Diniy madaniyat o'rniga bu xalqlarga berilgan markcha-lenincha ta'limot esa ular imonini salomat olib qololmadi. So'nggi yillarda dinga erkinlik berilishi, islom ta'limotiga oid ilmiy-ommabop asarlarning paydo bo'lishi va boshqa tadbirlar natijasida **o'zbek she'riyatida islom asotirlari va g'oyalari bilan sug'orilgan she'rlar paydo bo'ldi.** Bu she'rlar «Qur'on» surasidagi oyatlarda va hadislardagi kishini to'g'ri yo'lga solishga irshod qilingan fikrlar asosida yozilgani uchun kishi imonini mustahkamlashga juda qo'l kelyapti. Chunki imoni mustahkam odam har qanday yomonlikdan va insoniy illatlardan saqlanadi, hech kimga zulm qilmaydi»¹.

Olimning fikrlariga umuman qo'shilgan holda, biz **hozirgi o'zbek she'riyatiga xos tamoyillardan yana biri shoirlarning poetik nutqning xitob, murojaat kabi shakllaridan, so'z takrori, ritorik so'roq kabi unsurlardan foydalanib, olamni uning bir bo'laki bo'lmish inson dunyosini poklash orqali munavvar etish haqidagi dunyo olimlari, faylasuf-u shoirlari qarashlariga hamohanglikda yaratilayotgan poetik g'oyalari, betakror tashbehlarga yuklangan salmoqli fikr va tuyg'ulardan anglashilishini ta'kidlamoqchimiz.** Zero, bugungi kunda insoniyatning qiblaga yuz tutayotganligini dunyo tan olmoqda¹. Xususan, shoir Usmon Azim olam sirlarini anglashga nechog'lik urinmasin «sirlar tugunini echa olmaganligini» e'tirof etadi.

Shoir ayni holat sababini olamning bor siru sinoatlarini o'z ko'ngil olamida jilvalantirgan inson qalbi sirligicha qolganligida, deb hisoblaydi:

«Tangrim, faqat kechir, bandalaringga
Bir qatra ozodlik bermaganim-chun.
Qon yutgan ko'rimlar uchun kechirgin
Ko'zimning yoshlari uchun kechirgin.
Dunyoning toshligi uchun kechirgin.

¹ И.Каримов. Истиклол даври шеърияти. –Т.: Зарқалам, 2005. 20-бет.

¹ Усмон Азим. Сайланма. Шарқ³ нашриёт матбаа концерни. –Т.: 1995. 405-бет.

Kechirgin - ko‘yingda adashganimni,
Kechirgin - ko‘yingda tinmaganim-chun,
Kechirgin – erk uchun talashganimni,
Va erk senligingni bilmaganim-chun»².

Insonni poklash, olamni tozartirish, oq va qora ranglar zamiridagi ma’nolar: ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi azaliy ziddiyatni ko‘tarib, uloqtirib tashlashga qodir kuch bormi? Bugun insoniyat ongini zabt etgan savol alomatiga qanday ma’nolar singishgan? Muammo echimi qanday? Olamni inson bolasi yaratgan yovuzliklardan saqlab qolish mumkinmi? Ana shu savolga javob izlab, «oxir zamon» alomati-yu zalolatlari haqida, gunohlarga burkangan kurrani shoir Bahrom Ro‘zimuhammad quyidagicha tasvirlaydi:

«...ayni paytda taftish kuchi bois
o‘z o‘qidan chiqib ketdi yer shari
chiqib ketdi quyosh sistemasidan.

ayni paytda tong ila tun
ola bula shamoyilga kirdi
zulmda o‘zgartirib rangu tusini

oq olma pishayotgan chog‘
qorbo‘ron o‘ynab yurdi bolalar.
yozga qo‘shildi qishning uch kuni.

ayni paytda tug‘ilgan go‘dakning
soch-soqoli oqardi birdan
onasini emdi munkaygan chol.

ayni paytda quyosh nurini
qayga sochishni bilmay turdi-da
kuydirib yubordi oyni daf‘atan...»¹.

Nega? Nima uchun? Bu savollarga shoir «Qarg‘algan» nomli she‘ri orqali javob qaytargan:

«Sen ulug‘ ibtidodan nariroqda bir qadam bosding
Shu bois Allohning qahri keldi

² Баҳром Рўзимухаммад. Соялар суқбати. Шеърлар тўплами. –Т.: Зарқалам нашриёти. 2006. барча кўчирмалар шу тўпландан олинди.

¹ Баҳром Рўзимухаммад. Соялар суқбати. Шеърлар. –Т.: Зарқалам нашриёти. 2006. 9-10-бетлар.

Payg'ambar qarg'adi seni
Shaytoni Laidan-da battarroq bo'lding
biroq sening ruhiyatingni to'ldirgan zavqu-shavq
ikki dunyoda ham yo'q faqat senda bor
ey, abadiy yig'i, ey abadiy kulgu, ey abadiy jimlik».

Shoir sirli-sehrli dunyo sarhadlaridan-da nariroqqa, bu dunyo chegarasidan tashqariga «qarashga», idroki, o'y-hayollari ila u tomonga «bir qadam tashlashga» botingan insonga shu gunohi uchun qarg'ish yopishgan. Bu shakkoklik evaziga shoir qalb iztirobi-yu bezovta ruhning mangu azobiga duchor etilgan. Ammo insoniyat dardini kuylab yig'lash, ezgulik nurlariga chulg'angan olam go'zalliklari-yu odam kulgusidan zavqlanish faqat shoirlarga nasib etmishdir. Ayni chog'da, o'z ojizligini tan olib, Olloh irodasiga bosh egib, abadiy «jimlik» sari inson sukuti ham olam-olam ma'nolarni ifoda etadi. Bu xususiyat realistik tasvir uslubi bag'rida yuzaga kelgan «yangilik» sifatida e'tirof etilayotgan **«o'zbek modern she'riyati» alohida estetik tamoyil ekanligini asoslaydi.** Modern yo'nalishidagi she'rlar ijodkoru kitobxonning XXI asrdagi tabiiy ma'naviy-ruhiy ehtiyojlariga monand yuzaga keldi. Bunday she'rlar inson shaxsi va hayotini, uning ko'ngil olamini ijodkorning tasavvurlar olami orqali kuzatish orqali har ikki olam uyg'unligi yoki o'zgachaligini anglash mumkin bo'lgan ma'nolarini tasavvur voqeligiga aylantirib (his-tuyg'ular va idrok birligi) badiiy talqin qilish natijasidir. Ijodkorlarning bunday she'rlari bir qarashda milliy she'riyatimiz uchun noan'anaviydek tuyuladi. Hijo, tuyuq va qofiyadan uzoq xalq jonli tiliga yaqin sərbast she'rlarni bir o'qishda tushunish qiyin, ammo har bir so'z, har bir satr muayyan obrazli ifodaga, ramziy ma'noga va ichki ohangga egaki, bu xususiyatlar shoir mahorati orqali betakror poetik manzaralar va badiiy umumlashmalar yaratilishiga asos bo'lgan. Bunday she'rlar o'zi va o'zgalar olamini yangi jihatlardan idrok etishga intilayotgan zamondoshimizning ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini to'la qondirmoqda..

Taniqli munaqqid va olim A.Rasulov esa so'nggi yillar o'zbek poeziyasining biz tahlil qilgan tamoyillari haqida so'z yuritib, «so'nggi yillar o'zbek poeziyasida insonning o'zini-o'zi anglash muammosi jiddiy talqin etilmoqda. Inson ruhiyatidagi hayot, ziddiyat, falsafiy-ruhoniylar talqin hech kimni befarq qoldirmaydi. Abdulla Oripovning «Bir qarasam» she'rida ham o'zini-o'zi anglash, ruhiy holat, ichki kurash aks etadiki, u asarning umriboqiyiligini ta'minlagan...

O'zbek adabiyotida «men» - «yaratgan hamma narsamiz» qatlami yoxud inson farzandining tabiat va jamiyat bag'riga to'la kirib borishi, «men» - «koinot» qatlami yoki ilmiy-diniy-falsafiy qarashlarni yaxlitlikda aks ettirgan murakkab asarlar hali ko'p emas... Rauf Parfi, Abduvali Qutbiddin, Faxriyor singari shoirlar asarlarida tarixiy nomlar, asarlar, diniy tariqatlarga

ishoralar borki, ularni o'zlashtirish uchun ma'lum tayyorgarlik bosqichini o'tash joiz»¹. Ayni fikrni bugungi o'zbek she'riyatining «modern» yo'nalishida ijod qilayotgan barcha shoirlar asarlariga tadbiq etish mumkin, deb o'ylaymiz. Chunki bunday uslubdagi she'rlar kitobxondan she'rshunoslik ilmini va muayyan adabiy tayyorgarlikni talab etishi aniq. Zotan, she'rni har bir kitobxon o'z ko'ngli, his-tuyg'ulari va tafakkur tarziga monand his qilib anglaydi.

Hozirgi o'zbek she'riyati namunalarini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- mustaqillik davri o'zbek she'riyati timsolida sirli-sehrli va rang-barang inson olamini shoir yoki lirik qahramon qanday angalayotganligini tasvirlashdan betakror inson dunyosining turfa holatlarini o'z idroklari-yu his-tuyg'ulariga tayanib, ko'ngillariga o'zlari yo'l topishlariga undash, insonni anglashga intilishdan uning qalbini o'ziga anglatish tomon qadam tashlanganligini ko'rsatuvchi yo'nalish paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Hozirgi o'zbek she'riyatiga xos bu tendensiya qanday ijodiy-estetik tamoyillarda o'z aksini topmoqda?

O'zbek shoirlarining o'zbek klassik she'riyati va xalq og'zaki ijodiga xos an'analarni davom etdirib, poetik nutq xususiyatlaridan mohirona foydalanib, ijtimoiy-falsafiy ma'no tashuvchi badiiy umumlashmalarni yaratishga intilishlarida ko'rinadi;

- zamondoshimiz ongida, xayoloti, ruhiyatida sodir bo'layotgan jarayonlarni bor ko'lami va turfa ranglari bilan tasvirlash tendensiyasi yozuvchilarga inson ongi va dunyosining betakror, ziddiyatli holatlarini hayotning o'zidagi kabi tabiiyligi bilan badiiy gavdalandirish imkonini berayotganligini ko'rsatadi;

- shoirlar favqulodda yaratilgan ifodalar orqali ramziy obrazlarni kitobxon ko'z o'ngida jonlantirishga erishib, poetik g'oyani to'laqonli anglatishga muvaffaq bo'layotirlarki, bu xususiyat hozirgi o'zbek she'riyatiga xos tendensiya sifatida o'rganilishi lozim. Ranglarni ramzlashtirish hozirgi o'zbek adabiyotida o'ziga xos an'ana tarzida davom etmoqda, badiiy-estetik tamoyil sifatida yashamoqda;

- o'zbek she'riyatida islom asotirlari va g'oyalari bilan sug'orilgan she'rlar paydo bo'ldi. Hozirgi o'zbek she'riyatiga xos tamoyillardan yana biri shoirlarning poetik nutqning xitob, murojaat kabi shakllaridan, so'z takrori, ritorik so'roq kabi unsurlardan foydalanib, olamni uning bir bo'lagi bo'lmish inson dunyosini poklash orqali munavvar etish haqidagi dunyo olimlari, faylasuf-u shoirlari qarashlariga hamohanglikda yaratilayotgan poetik g'oyalari, betakror tashbehlariga yuklangan salmoqli fikr va tuyg'ulardan anglashilishini alohida ta'kidlaymiz;

- mustaqillik davri o'zbek she'riyatiga xos xususiyat: ruhiy tahlilning teranligi; asarga xos poetik tafakkur tarzining serohangligi; voqealarning an'anaviy realistik asarlardan farqli hayotiy manzaralarda gavdalandirish; hodisalar, kechinmalar «men» orqali his qilinishi yangilik sifatida qabul qilindi, bahs munozaralarga sabab bo'ldi. Bu xususiyat realistik tasvir uslubi bag'rida

¹ А.Расулов. Танқид, талқин, баҳолаш. –Т.: Фан. 2006. 105-106-бетлар.

yuzaga kelgan «yangilik» sifatida e'tirof etilayotgan «o'zbek modern she'riyati» alohida va o'ziga xos estetik tamoyil sifatida yuzaga kelganligi hamda rivojlanayotganligini asoslaydi.

X U L O S A

Ma'lumki, lirika davr muammolarini qahramon shaxsiyati orqali talqin qilishda, zamonda bo'layotgan voqealarga uning tuyg'usi orqali munosabat bildirishda eng hozirjavob adabiy janrdir. Lirika tabiatidagi bunday xususiyatni V.G.Belinskiy quyidagicha ta'riflagan edi: «Bunda (ya'ni lirikada) shoirning shaxsiyati birinchi o'rinda turadi, biz hamma narsani faqat u orqaligina qabul qilamiz va anglaymiz»². Yana: «Lirik asar ayni sezgi mevasi bo'lganidan juda uzun bo'la olmaydi va bo'lishi ham kerak emas... Sof lirik asar bir lahzalik ilhomning mevasi, bizning butun vujudimizni larzaga solishi va uzoq vaqt qalbimizni to'ldirishi mumkin, lekin buning uchun biz uni bir necha daqiqada o'qib chiqishimiz kerak»³.

Lirika tabiatidagi ana shu o'ziga xoslik fikrlar silsilasida qahramonning zamon va makon voqealariga bo'lgan tuyg'ularini bera olish mahorati shoir lirik qahramonining she'rdan-she'rga

² Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1955. – Б.134.

³ Ўша асар. - Б.185.

kamol topib borganini ko'rsatadi. Shoir lirik qahramonining ruhiy olami, har bir she'riy asarning poetik g'oyasida u yashab turgan zamon va xalq, jamiyatning ma'naviy hayoti, ijtimoiy muammolari tiniq ko'zgudagi kabi aks etadi.

Jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi munosabatlar, shoirning ruhiy olamidagi ma'naviy boylik va go'zallik poetik obrazlar va hayot manzaralarida ko'rinadi. Shoir tasavvur olamidagi go'zallik jilolari va tovlanishlari, tabiiyki, uning lirik qahramoni ruhiy olamining boyliklarida, ularning faoliyati va psixologik kechinmalarida, his-hayajonlarida o'z ifodasini topadi.

Yuqoridagi kuzatishlarimiz natijasida bugungi o'zbek she'riyatida davr va lirik qahramon talqini masalasini yoritishda qo'yidagi muammolarni tahlil etish ko'zda tutildi va shunday xulosaga kelindi:

1. Miliy o'z o'zini anglash, eng avvalo, Vatanni, Millatni tanishdan, qolaversa, uning boy tili va Tarixini chuqur bilash, qadrlashdan, ma'naviy qadriyatlarini tiklash, poklanishdan boshlanadi. Istiqloq she'riyati lirik qahramoni ana shularni chuqur anglab yeta olgan intellektual shaxs. Ma'naviy erk tushunchalariga katta qalb bilan yondoshayotgan lirik qahramon ko'ksidagi Iztirob, Dardning ijtimoiy ildizlari bor. Vatan va Millat dardi uning qalb meridianlarini kesib o'tadi.

2. Fitrat, Cho'lpon ijodida boshlangan milliy uyg'onishga da'vat tuyg'ulari Mustaqilik davri she'riyatida yuksak badiiy mahorat bilan davom ettirildi.

3. Tarixiy shaxs timsoli davr fojialarini aks ettirishning o'ziga xos ramziy-timsoliy vositasiga aylanib bormoqda.

4. Tarixiy shaxslarga bag'ishlangan she'rlarda ularga davr mafkurasi bilan emas, tarix nigohi bilan qarash, ularning haqqoniy badiiy talqinini yoritish yetakchilik qilmoqda, bu albatta, asarning tarixiy va zamonaviy ildizlarini bir-biriga chambarchas bog'lamoqda.

5. Shoirlar lirik qahramon "men"ning Vatan va millat haqidagi iztiroblarini realistik asoslarda tasvirlar ekan, uni tarixiylik ildizlarini ko'z oldidan o'tkazadilar. Millatning Tarix qabatlaridagi o'rni va xizmatiga bepisandlik bilan qarash adolatsizlik ekanligini badiiy dalillaydilar.

6. Istiqloq she'riyatining lirik qahramoni Vatan tarixini butunisicha o'qish armoni bilan yashayotgan zamondosh. U Tarixda Bugungi, Bugunda esa Tarixni ko'radi. Tarixi toptalgan xalqning Ertasi yo'q ekanligini qalban his qilaolgan qahramon olis ajdodlari Ruhini Til (so'z)da ko'radi. Tarix kabi uning toptalishi va kamsitilishi-millat qadriyatlarini oyoq osti qilish bilan barobarligini alohida o'qtiradi.

Xullas, yangi davr lirik qahramoni Vatan, Millat, Erk, Tarix, Til kabi masalalarga komillik sari intilayotgan Ruhning ma'naviy nigohi bilan qaraydi. U o'zining Shaxs sifatida kamolotini ularsiz tasavvur eta olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. - T.: O'zbekiston, 1994. - 154 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008.

Ilmiy va badiiy adabiyotlar

1. Afoqova N. She'r, hadis, hikmat// O'zbekiston adabiyoti va san'ati. -1994. -3 iyun.
2. Afoqova N., G'aniyev I. She'r - haqiqat darakchisi// O'zbek tili va adabiyoti. -1997. -5 sent.
3. Bahrom Ro'zimuhammad. Soyalar suhbatlari. She'rlar. -T.: Zarqalam nashriyoti. 2006. 9-10-betlar.
4. To'lakov I. Davr, lirik qahramon va badiiyat qirralari // "O'zbek tili va adabiyoti" 1993, №5-6
5. To'lakov I. Qahramonning ma'naviy olami// "O'zbek tili va adabiyoti" 1993, №2
6. To'lakov I. "She'r - qalb yolqini", Toshkent, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994 yil.
7. Zahridin Muhammad Bobur. Asarlar. Uch jildlik. 1-Devon. -T.: 1987.
8. Karimov N. Dunyoda diyonat hali mavjuddir// Saodat. - 1991.-№ 6. -B. 35-37.
9. Karimov H. «Istiqlol davri she'riyati» «Zarqalam». Toshkent, 2005.
10. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. - Toshkent: Yozuvchi, 1996. -271 b.
11. Meliyev S. She'riy so'z va estetik ta'sir// O'zbek tili va adabiyoti. -1982. -№ 2.
12. Munosabat // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. - 1998. -24 iyul.
Mo'minova Z. Yonayotgan ayol. -T.: Yozuvchi, 1992. 89-bet.
13. Nazarov B. Sevinch dardim - bari Vatanim// Sharq yulduzi. -1997. -№11.
14. Norboyev B. Istiqlol va iste'dod tarbiyasi. -T.: O'qituvchi, 1996. - 87 b.
15. Oripov A. Adolat ko'zgusi. - T.: Adolat, 2005. - B.400.
16. Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-tom. -T.:Adabiyot va san'at,2000.-431 b.
17. Oripov A. Tanlangan asarlar. 2-tom. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. -492 b.
18. Oripov A. Tanlangan asarlar. 3-tom. -T.: Adabiyot va san'at, 2001. -382 b.
19. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4-tom. -T.: Adabiyot va san'at, 2001.-381 b.
20. Rahimjonov N. Inson qalbi jarayonlari // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. -1991. -3 may.
21. Rahimjonov N. Diniy-axloqiy g'oyalarning badiiy talqinlari// O'zbek tili va adabiyoti. -

Toshkent, 2002. – 5-son. – B. 7-11.

22.Rahimjonov N. Mustaqillik davri she'riyatining yetakchi xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. – 3-son. – B. 9-16.

23.Usmon Azim. Bahorgi bog'. T., "Sharq" 1994.y

24.Ulug'bek Hamdam. Yangilanish ehtiyoji. – T.: Fan, 2007. - 196 b.

25.Hamdamiyov A. Abdulla Oripov she'riyatida insoniylik talqiniga doir // O'zbek tili va adabiyoti. - 1998. - №2. -B. 43-45.

26..Xudoyberdiyeva X. Saylanma. –T.: Sharq³. 2001. 398-bet.

27.Haqqulov I. Irfon va idrok. - T.: Ma'naviyat, 1998. –

28.Haqqul I. Tasavvuf saboklari. - Buxoro, 2000. – 144 6.

29. Sirojiddin Sayyid. So'z yo'li. 1-kitob. T., 2008.

30. Sirojiddin Sayyid. So'z yo'li. 2-kitob. T., 2008.